

A. RAFIYEV , G. MUXAMEDJANOVA,
G. ZIYAMUHAMEDOVA

O'ZBEK TILI

*Ta'lim rus va qardosh tillarda
olib boriladigan maktablarning
3-sinfi uchun darslik*

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi
vazirligi tasdiqlagan

Beshinchi nashri



TOSHKENT – «O'ZBEKISTON» – 2019

Taqrizchilar:

D. Ziyayeva – Olmazor tumani 233-maktab
o'qituvchisi;

L. Yunusova – Yashnobod tumani 145-maktab
o'qituvchisi;

Z. Palvonova – Chilonzor tumani 90-maktab
o'qituvchisi.

Shartli belgilar:



– To'g'ri talaffuz qiling!



– Bilib oling!



– Muomala odobi va suhbat



– Uyga vazifa



– Yodda tuting!



– Ifodali o'qing!

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi
mablag'lari hisobidan chop etildi.**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

Mutal (Mutavakkil)
BURHONOV musiqasi

Abdulla ORIPOV
so'zi

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay toabad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

N a q a r o t :

Oltin bu vodiylar—jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo'l obod!

N a q a r o t :

Oltin bu vodiylar—jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

I. VATANIM



1-DARS

1-topshiriq. Berilgan so'zlardan foydalanib, suhbatni davom ettiring.



SUHBAT

- Vatan nima?
- Vatan — bu uyimiz.
-

Foydalanish uchun so'zlar: davlat, obod, bog'lar, chiroyli, keng.



Toshkent



Samarqand

2-topshiriq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni daftaringizga ko'chirib yozing.

VATAN

Bizning **Vatanimiz** O'zbekiston. O'zbekiston quyoshli va boy o'lka.

O'zbekistonda qadimiy va navqiron **shaharlar** ko'p. **Barcha** viloyatlarda **ulkan qurilishlar** ketmoqda. Yangi **sanoat korxonalari** **bunyod etilmoqda**. **Bog'-rog'lar** ko'paymoqda. Biz **bepoyon** Vatanimizni sevamiz.

Lug'at

vatan – родина

qadimiy – древний

navqiron – здесь: молодой

ulkan – огромный

qurilish – стройка

sanoat korxonalari – промышленные
предприятия

bunyod etilmoq – быть созданным

bepoyon – бескрайний; необъятный

3-topshiriq. Lug'atda berilgan so'zlardan foydalanib, 4 ta gap tuzing.

Namuna: *Bizning Vatanimiz bepoyon.*



Yodda tuting!

Ko'pay

Quril

moqda.

1-mashq. Berilgan so'zlarni tartib bilan qo'yib, gaplar tuzing.

1. Boy, O'zbekiston, o'lka, quyoshli, va.
2. Biz, sevamiz, Vatanimizni, bepoyon.
3. Ketmoqda, ulkan, viloyatlarda, barcha, qurilishlar.

4-topshiriq. Suhbatni davom ettiring.



SUHBAT

- Isming nima?
- Mening ismim Davron.
- Nechanchi sinfda o'qiysan?
- Men uchinchi sinfda o'qiyman. Sen-chi?
-

5-topshiriq. She'rni ifodali o'qing.



O'ZBEKISTON

Qo'li ochiq bog'laring ko'p,
G'aznaga kon tog'laring ko'p.
Yashnamoqda qishloq, shahring,
Yaxshilikka to'liq bag'ring.
Osmoningdan, o'tlog'ingdan,
Paxtaoydek oppog'ingdan.
Rang olgandir bayrog'ing ham,
Aziz o'lkam, o'zing ko'rkam!

Anvar Obidjon

Lug'at

g'azna – богатство; сокровище

tog' – гора

o'tloq – пастбище; луг

kon – рудник



Uyga vazifa. 5-topshiriqdagi she'rni yod oling.

1-topshiriq. Rasm asosida suhbatlashing.




Foydalanish uchun so'zlar: favvora, tinchlik, haykal, baland, sevmiq, dam olmoq, yo'llar.

2-topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing.



- Salom, Akmal.
- Salom, Nodir.
- Vatan nima?
- Vatan tug'ilgan uyimizdir. Vatan – bu O'zbekistonim.

1-mashq. O'qing va so'zlardan gap tuzing.



3-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

MENING VATANIM

Mening Vatanim–O'zbekiston. Men shu yurtda tug'ildim. Uning tuprog'i men uchun aziz. O'zbekiston go'zal va boy davlat. Bu Vatanda turli millat vakillari yashaydi.

O'zbekistonning poytaxti–Toshkent shahri. U katta va chiroyli shahar. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarining nomi dunyoga mashhur. Biz jonajon Vatanimizni sevamiz.

2-mashq. Nuqtalar o'rniga zarur qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Mening Vatan... (-i, -im) O'zbekiston. Men Buxoro... (-ga, -da) bordim. O'zbekiston... (-ni, -da) qadimiy shaharlar ko'p.



Uyga vazifa. «Mening Vatanim» mavzusida kichik matn tuzing.

3-DARS

1-topshiriq. Ifodali o'qing.

VATANIM

Vatanimiz juda go'zal. Bu yerda chiroyli shaharlar, yam-yashil vodiylar, daryo va ko'llar bor. Vatanimiz yerosti boyliklaridan gaz, oltin, neft, ko'mirga boy.

Paxta, bug'doy, meva va sabzavotlardan mo'l hosil olinadi.

Biz Vatanimiz bilan faxrlanamiz.

Lug'at

vodiy – долина

oltin – золото

ko'mir – уголь

bug'doy – пшеница

1-mashq. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

1. Shahrimizda yangi binolar quril... (-moqda, -ni).
2. Poytaxtimiz go'zal bo'l... (-gan, -moqda).
3. Yurtimizda meva va sabzavotlardan mo'l hosil olin... (-adi, -ing).

2-mashq. O'qing va daftaringizga ko'chiring.

Maqollar

Bulbul chamanni sevar,
Odam – Vatanni.

Ona yurti –
Oltin beshigi.

2-topshiriq. She'ni ifodali o'qing.



O'ZBEKISTON – VATANIM

O'zbekiston – Vatanim,
Baxt, bahorim, chamanim.
Yurt yagona, qalb tanho,
Elga fido jon-tanim.
Quchib qaynoq quchog'in,
Ko'zga surtib tuprog'in.
Hurlik qo'shig'in kuylab,
O'paman yurt bayrog'in...

Normurod Narzullayev



Uyga vazifa. 2-mashqdagi maqollarni yod oling.

II. SINFIMIZ

1-DARS

1-mashq. Dialoglarni zarur savol yoki javoblar bilan to'ldiring.

1. — Nechanchi sinfda o'qiysiz?
—
2. — Sinfingizda nimalar bor?
—
3. — ?
— Ha, kitob javoni bor.
4. — ?
— Bugun men navbatchiman.

Bilib oling!

-da qo'shimchasi yordamida o'rin-joy ma'nosi ifodalanadi: *sinf* + **da** = *sinfda*, *xona* + **da** = *xonada* kabi.

Masalan: *Javonda* kitoblar ko'p.

2-mashq. Rasmdagi narsalar nomiga **-da** qo'shimchasini qo'shib, gaplarni o'qing va daf-taringizga ko'chiring.

Sinfimiz katta va yorug'.  sinf
jurnali turibdi.  «3-sinf» deb yozilgan.
 sana yozilgan.  turli kitoblar bor.



To'g'ri talaffuz qiling!

ng tovushini to'g'ri talaffuz qiling!

keng
bering
tong

ming
rang
o'ng

1-topshiriq. Rasm asosida suhbatlashing.



Foydalanish uchun so'zlar: kitob javoni, yozuv doskasi, o'qituvchi stoli, sinf burchagi, devorga.

2-topshiriq. Matnni o'qing. Shu asosda o'z sinfingiz haqida so'zlab bering.

Bu bizning sinfimiz. Sinf xonasi keng va ozoda. Sinfda yozuv doskasi, kitob javoni bor. Sinf burchagida navbatchilar ro'yxati osilgan. Bugun Abror Ahmedov navbatchi. U o'qituvchiga yordam beradi.

3-topshiriq. Sinf xonangiz asosida savollarga javob bering.

1. Sinfda nimalar bor?
2. O'qituvchi stolida nimalar turibdi?
3. Sinf xonasi kengmi?
4. Sinfda gullar bormi?

Lug'at

osilgan – висит

kitob javoni – книжный шкаф

navbatchi – дежурный



Uyga vazifa. Lug'atda berilgan so'zlardan foydalanib, 2–3 ta gap tuzing.



2-DARS

1-topshiriq. Sinfingiz to'g'risida quyidagi savollarga javob bering.

1. Siz nechanchi sinfda o'qiysiz?
2. Bugun kim navbatchi?
3. Sinfda nechta o'quvchi bor?
4. O'qituvchi nima qilyapti?
5. Savollarga kim javob beryapti?



Muomala odobi

Iltilmos, o'rningdan tur.

Iltilmos, yozuv doskasini art.

Iltilmos, kitobni javonga qo'y.

Rahmat, joyingga o'tir.



Yodda tuting!

Men uch + **-inchi** sinfda o'qiyman.

Akam olti + **-nchi** sinfda o'qiydi.

1-mashq. Qavs ichidagi so'zlardan gap mazmuniga mosini tanlang va gaplarni ko'chiring.

Namuna: *Daftaringga yoz.*

1. Yangi so'zlarni daftaringga (yoz, o'qi).
2. Lug'atni kitob javoniga (ber, qo'y).
3. Navbatchi, yozuv doskasini (ko'chir, art).
4. Do'stingning savoliga javob (ber, ayt).
5. Sen ikkinchi partaga (tur, o'tir).

2-mashq. Rasmlar o'rniga ularni ifodalovchi so'zlarni qo'yib, chiroyli yozing.

Men



o'qidim.

Anvar



o'qidi.

Go'zal



oldi.

Bu yangi



binosi.

Mana bu



zali.

Rahima opa qayerda?

Rahima opa



da.



Uyga vazifa. «Sinfda» mavzusiga 3–4 gapdan iborat bog‘lanishli matn tuzing. Unda **-da** qo‘shimchali so‘zlardan foydalaning.



3-DARS

1-topshiriq. «Tanaffusda» mavzusida namunadagidek suhbatlashing va dialogni davom ettiring.



— Nodira, iltimos, menga daftaringni berib tur.

— Mana, ol, ammo unga chizma, xo‘pmi?

— Xo‘p,

— Keyin uni o‘qituvchining stoliga qo‘y.

— Rahmat,

— Yur, endi oshxonaga boramiz.

1-mashq. Sinfingizdagi narsalar nomini quyidagi jadvalga muvofiq joylashtiring.

O'quv qurollari	Mebellar	Texnika jihozlari

2-topshiriq. «Sinfimizda» mavzusida namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Kitoblar javonda turibdi.*

Gullar deraza oldida turadi.

3-topshiriq. Rasm asosida savollarga og'zaki javob bering.



1. Sinfda nimalar bor?
2. Sinfingiz sizga yoqadimi? Nima uchun?
3. Kitob javonida nimalar bor?
4. Sinfda gullar bormi?



Uyga vazifa. 3-topshiriqdagi savollarga javob yozing.

III. KUZ



1-DARS

1-topshiriq. Rasm asosida bog'lanishli matn tuzing.

Namuna: *Havo soviy boshlaydi. Kuzda ko'p bayramlar o'tkaziladi.*

Foydalanish uchun so'zlar: barglar sarg'ayadi, havo salqin, o'qish boshlanadi, Mustaqillik bayrami.

2-topshiriq. Matnni ifodali o'qing va matn asosida savollarga og'zaki javob bering.

KUZ

Kuz fasli keldi. Kunlar soviy boshladi. Dehqonlar hosilni yig'ishga kirishdilar. Kuz

ajoyib fasl. Havo iliq. Osmonda bulutlar ko'p. Ba'zan quyosh ko'rinmaydi. Quyosh qattiq qizdirmaydi. Daraxtlarning bargi sarg'ayadi. Keyin yerga to'kiladi. Kuchli shamol barglarni uchirib ketadi. Kuz fasli menga yoqadi.

Kuzda nimalar pishadi?

Kuzda havo qanday bo'ladi?

Kuz fasli sizga nima uchun yoqadi?

Lug'at

sovimoq — охлаждаться

iliq — тепло

dehqon — дехканин

hosil — урожай

sarg'aymoq — желтеть



To'g'ri talaffuz qiling!

u va **o'** tovushlarini to'g'ri talaffuz qiling!

ulug'

o'smoq

o'rnak

uzum

o'rik

to'liq

tushuncha

o'lka

jo'mrak

bulut

qo'shiq

yo'lak

1-mashq. Kuz mavzusida berilgan tayanch soʻzlar asosida suhbat tuzing.

Foydalanish uchun soʻzlar: kuz, iliq, bulut, shamol, hosil, sargʻaymoq.

Namuna: *Kuz keldi. Daraxtlarning barglari sargʻaydi. Mevalar pishdi.*



Uyga vazifa. 2-topshiriqdagi matn asosida savollarga javob yozing.



2-DARS

1-topshiriq. Sheʼrni ifodali oʻqing.



SOZ BOʻLDI

Kuz kelgani soz boʻldi,
Omborlar donga toʻldi.
Pishdi shirin mevalar,
Tatib koʻngil chogʻ boʻldi.
Bobodehqon mehnati,
Ona yerning himmati.
Chanoqdagi paxtalar
Osmon qadar togʻ boʻldi.

Vali Ahmadjon

Lugʻat

ombor — склад

don — зерно

himmat — щедрость

chog' bo'lmoq – быть довольным
chanoq – хлопковая коробочка
osmon qadar – до неба



Bilib oling!

-di qo'shimchasi so'z o'zagiga qo'shilib, ish-harakatning o'tgan zamonda aniq bajarilganligini ifodalaydi.

Masalan: *Mevalar pishdi. Do'kondan uzum oldik.*

1-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying. **-di** qo'shimchasining qo'llanilishiga e'tibor bering.

Bu ... (mening, bizning, sening) bog'imiz. Bog'da mevali daraxtlar ... (ko'p, bor, kam). ..., ..., ... (olma, chinor, nok, shaftoli) daraxtlari bor. Hozir ... (mevalar, olmalar) pishgan. Kecha men ... (olcha, tut, olma) terdim. Menga ... (olma, olcha, gilos) yoqadi. Dadam uzumlarni ... (kesdilar, uzdilar, terdilar). Ularni qutiga ... (joyladik, soldik, to'pladik).

2-mashq. Gaplarni davom ettiring.

1. Kuz
2. Olma, anor
3. Dalada qovun

2-topshiriq. Berilgan gaplarga savol tuzing.

1. Yoz faslidan so'ng kuz keladi.
2. Bir yilda to'rt fasl bor.
3. Sentabr oyidan maktablarda o'qish boshlanadi.
4. Menga kuz fasli yoqadi.

Topishmoq

Yer tagida oltin qoziq.



Pak-pakana bo'yi bor,
Yetti qavat to'ni bor.



Boshida bor kokili,
Belidadir hosili.



Uyga vazifa. Topishmoqlarni o'qing va yod oling.

IV. MEVALAR

1-DARS

1-topshiriq. Rasmdan foydalanib, namunadagidek suhbatlashing.



Namuna:

- Bog'da qanday mevalar pishadi?
- Bog'da olma, o'rik, nok va behi pishadi.
- Bu qanday olma?
- Bu qizil olma.
- Bu nok daraxtimi?
- Ha, bu nok daraxti.

1-mashq. O'qing va rasmlar asosida javoblarni to'ldirib, gaplarni ko'chiring.

Bu qaysi meva? Bu  .

Ana u nokmi? Yo'q, bu  .

Bu-chi? Bu  bilan  .

Savatda qanday meva bor? Savatda



bor.

2-topshiriq. Rollarga bo'lib o'qing.

- Bu nima?
- Bu ko'k olma.
- U shirinmi?
- Yo'q, u nordon.
- Ana u nokmi?
- Ha, u juda shirin nok.
- Bog'da qanday mevalar bor?
- Bog'da nok, shaftoli, uzum bor.

3-topshiriq. Savollarga javob bering.

- Nechta anor bor? —
- Uzum qanaqa? —
- Olxo'rining rangi qanday? —



Uyga vazifa. O'zingiz yoqtirgan meva haqida
3–4 ta gap tuzing.

Namuna: *Men mevalardan shaftolini yaxshi ko'raman.*

Foydalanish uchun so'zlar: shirin, mazali, rangi, bog', har xil, chunki, ko'p.



1-topshiriq. Suhbat matnini o'qing va davom ettiring.



- Bog'bon mevalarni nima qilyapti?
- U uzilgan mevalarni savatlarga joylayapti.
- Anvar, sizlarning bog'ingiz bormi?
- Ha, bor.
- Bog'ingizda qanday mevalar bor?
-

1-mashq. O'qing va ko'chirib yozing.

BOG'DA

Biz bog'ga kirdik. Bog'da daraxtlar ko'p. Ikkita bola meva terdi.

Qizlar o'riklarni savatga terdilar. Bog'da gilos, olcha, shaftoli ham bor ekan.

Bog'bon bobo bizga: «Mevani yuvib yenglar», – dedilar. Biz o'rik, olchalarni yuvdik va maza qilib yedik. Mevalar juda shirin ekan. Bog'bon boboga rahmat, dedik.

2-mashq. Rasmlarda berilgan mevalarning nomini topib, gaplarni ko'chiring.

1. Akmal  ni yuvdi.

2. Bog'bon  larni uzdi.

3. Qizlar  larni savatga terdilar.

2-topshiriq. She'rlarni o'qing va jo'r bo'lib takrorlang. Yod oling.

Gilos

Men gilosman,
Quloq sol,
Rangim ol-u,
Totim bol.
Topsang
Qo'shalog'imni,
Qulog'ingga
Taqib ol.

Yong'oq

Miya kabi
Shaklim bor,
Boshim to'la
Aqlim bor.
Meni yegan
Donishmand
Bo'lur degan
Naqlim bor.

Erkin Vohidov



Uyga vazifa. Tez aytishni ko'chirib yozing va yodlang.

Unsin uzum uzib, unga uzatdi.

V. POLIZDA

1-DARS

1-topshiriq. Rasm asosida savollarga javob bering.



1. Polizda nimalar yetishtiriladi?
2. Dehqon tarvuzlarni qayerga olib boradi?
3. Sabzavotlar nima uchun kuzda yig'ib olinadi?

Foydalanish uchun so'zlar: qovun, karam, piyoz, lavlagi, tarvuz, yig'moq, termoq, sabzi, qovoq, muzlamoq, qishga asrash uchun, saqlash.

2-topshiriq. Matnni o'qing. Ajratilgan so'zlarga **-ni** qo'shimchasini qo'shib, gaplar tuzing.

Mana bu **poliz**. Poliz juda katta. Polizda karam, kartoshka, sabzi, piyoz va boshqa

sabzavotlar o'sadi. Dehqon sabzavotlarni parvarish qiladi. **Hosil** yig'ib olinadi.

Pomidor va bodring teriladi. Bo'sh vaqtlarida **bolalar** ham ota-onalariga yordam beradilar. Aziz akasi bilan kartoshkalarni kovlayapti. Sabzavotlarni maza qilib yeymiz. **Ular** juda foydali.

Lug'at

poliz – бахча, огород

boshqa – другой

o'smoq – расти, вырасти

yordam bermoq – помогать

bodring – огурец

piyoz – лук

karam – капуста

sabzavotlar – овощи



Bilib oling!

-**ni** qo'shimchasini olgan so'z harakat o'tgan, shaxs, narsa, buyum, makonni ifodalash uchun ishlatiladi.

Masalan: *Uzum**ni** uzdi. Anor**ni** yeymiz.*

1-mashq. Rasmlarda berilgan meva va sabzavotlarning nomini ayting.

Bu nima?



. Bu



Mana bu nima? Bu



Ana u-chi? Bu



bilan



2-mashq. Savollar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni o'qing va ko'chirib yozing.

1. Polizda (kimni?) uchratdik. 2. Komil (nimalarni?) savatga soldi. 3. Dehqonlar (nimani?) boshlashdi. 4. Quyon qizil (nimani?) yoqtiradi. 5. Oshpaz (nimani?) yog'da qovurdi.

Foydalanish uchun so'zlar: sabzi, behilar, piyoz bilan kartoshka, dehqon bobo, yig'im-terim.

3-topshiriq. She'rni o'qing, **g** va **g'** tovushlarini to'g'ri talaffuz qiling. She'rning mazmunini so'zlab bering.

KUZ

Kuz, sen – ochil dasturxon,
Noz-ne'matga to'lgan dam:
Misli mehrlil osmon,
Sen saxiysan hammadan.
Bog'lar xil-xil mevasin
Shoxida uzatadi.
Dehqon paykalda har kun
Mehmonin kuzatadi.

Kuz, hosiling mo'l bo'lsa,
Dalalarda qaynar ish.
Samoga bulut to'lsa,
Shoshil, kelib qolar qish.

Humoyun Akbarov

Lug'at

paykal – участок поля
samo – небо



Uyga vazifa. «Sholg'om» ertagi asosida **-ni**
qo'shimchasi qatnashgan gaplar tuzing.



2-DARS



1-topshiriq. Savollarga javob bering va dialogni to'ldirib, daftaringizga ko'chiring.

- Siz polizni ko'rganmisiz?
-
- Polizda qanday ishlar bajariladi?
-
- Sabzavotlarni qayerda saqlaydilar?
-
- Qaysi sabzavotlarni pishirib yeyish kerak?
-
- Dehqonlar hosilni nima qiladilar?
-
- Sabzavotlar qaysi faslda yig'ib olinadi?
-

1-mashq. Matnni o'qing, ajratilgan so'zlarga **-ni** qo'shimchasini qo'shib, gaplarni namunadagidek yozing.

Namuna: *Kartoshka tozalanadi.* – *Kartoshkani tozalash kerak.*

Kuzgi ishlar boshlandi. Bog'bonlar kuzgi mevalarni teradilar. Polizda qovun va tarvuzlar uziladi. **Hosil** omborda saqlanadi. Shaharliklarga **sabzavotlar** yetkaziladi. Barcha **mevalar** yuvib yeyiladi.

2-topshiriq. Rasmlar asosida savollarga javob bering.



– Polizda qanday sabzavotlar yetishtiriladi?

– Polizdan qanday sabzavotlarni yig'ib olyaptilar?

– Poliz mahsulotlarining foydali tomonlarini bilasizmi?

2-mashq. Berilgan so'zlarni tartib bilan joylashtirib, qo'shimchalardan mosini qo'yib gaplar tuzing.

Namuna: *Dehqon, yig'moq, hosil.*

Dehqonlar hosilni yig'dilar.

1. Poliz, ko'p, qovun, tarvuz.

... ..

2. Qop, sabzi, solmoq.

... ..

3. Ombor, quti, joylashtirmoq.

... ..



To'g'ri talaffuz qiling!

g va **g'** tovushlarini to'g'ri talaffuz qiling!

g ala	il g ak	g' uncha	mag' z i
gi l am	ba rg	g' altak	po'stlog' i
gu g urt	tug ma	g' oz	to' g' ramoq
gu l zor	kuz gi	g' isht	sig' mo q

3-mashq. Quyidagi so'zlarga **-ni** qo'shimchasini qo'shib daftaringizga yozing.

Poliz, terim, quti, tarvuz, qovoq.

3-topshiriq. Topishmoqlarni o'qing, **g** va **g'** tovushlarining talaffuziga e'tibor bering.

U yog'i tog',
Bu yog'i tog',
O'rtasida sariyog'.



To'la joy – xuddi oy,
O'zini yanchsang, to'la moy.



O'zi pillaga o'xshar,
Mag'zi tillaga o'xshar.



Uyga vazifa. Topishmoqlarning javobini daftaringizga yozing.

VI. SABZAVOTLAR



1-DARS

1-topshiriq. Rasmlar asosida suhbatlashing.



piyoz



kartoshka



pomidor



bodring



tarvuz



qovun



karam



sabzi



baqlajon

– Bular nima?

– Bular piyoz, kartoshka, pomidor va sabzi.

– Bodring va karam qani?

– Mana bodring va karam. Mana bu qovun, ana u tarvuz.

– Bu nima?

– Bu baqlajon.

1-mashq. O'qing va ko'chirib yozing.

Bu nima? Bu kartoshka bilan piyoz. Mana bu qovun bilan tarvuz. Ular shirinmi? Ha, juda shirin. Bu sabzimi? Yo'q, bu bodring.

Lug'at

sabzi — морковь

qovun — дыня

tarvuz — арбуз

shirin — сладкий

2-mashq. Kerakli harflarni qo'yib, so'zlar hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing. Gaplarni daftaringizga ko'chiring.

			z	i
--	--	--	---	---

q		v		n
---	--	---	--	---

k	a			
---	---	--	--	--

	i			z
--	---	--	--	---

2-topshiriq. She'rni ifodali o'qing.



SABZI

Tanishtirib o'zini,
Sabzi boshlar so'zini:
Qizil, sariq rangdamiz,
Yengilmaymiz jangda biz.
Yer ostida uyimiz,
Doim fikr-u o'yimiz:
Odamlarga berib naf,
Qozonda tursak qaynab.

Tolib Yo'ldosh



Uyga vazifa. She'rni yod oling.



2-DARS

1-topshiriq. Berilgan so'zlardan foydalanib, suhbat matnini davom ettiring.

- Bu nima?
- Bu kartoshka bilan piyoz.

- Mana bu qovoqmi?
- Yo‘q, bu qovun.
- ...

Foydalanish uchun so‘zlar: tarvuz, karam, pishdi, lavlagi, qalampir, achchiq.

1-mashq. Topishmoqlarni o‘qing va javobini yozing.

Makonidir dalalar,
Yer tagida bolalar.



Qirq ko‘ylagi bor,
Bir tugmasi yo‘q.

Yapaloq buva ichkarida,
Soqollari tashqarida.



To‘g‘ri talaffuz qiling!

k va **q** tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qiling!

karam

qovoq

kartoshka

qovun

kashnich

qalampir

2-topshiriq. *U, o', g', g, k* harflaridan birini tanlab, shu harflarga so'zlar yozing.

Namuna:

<i>u</i>	<i>o'</i>	<i>g'</i>	<i>g</i>	<i>k</i>
<i>Umar</i>	<i>o'lka</i>	<i>g'oz</i>	<i>gul</i>	<i>kitob</i>
...	...	...	...	...



Uyga vazifa. O'zingiz yoqtirgan sabzavotlarning rasmini chizing va nomlarini yozing. Ulardan qanday taomlar tayyorlanadi?

VII. OILA



1-DARS

1-topshiriq. Rasm asosida savollarga javob bering.

1. Bu oilada necha kishi yashaydi? 2. Sening oilangda necha kishi bor? 3. Sen nechanchi sinfda o'qiyapsan? 4. Otang qayerda ishlaydi? 5. Onang-chi?

2-topshiriq. Matnni o'qing, uning mazmuni asosida o'z oilangiz haqida so'zlab bering.

KATTA OILA

Bizning oilamiz katta. Oilamizda olti kishi bor: bobom, buvim, otam, onam, singlim va

men. Otam – o‘qituvchi. U maktabda ishlaydi. Onam – shifokor. U bemorlarni davolaydi. Bobom va buvim biz bilan birga yashaydilar. Men uchinchi sinfda o‘qiyman. Singlim bolalar bog‘chasiga boradi. Bizning oilamiz juda inoq. Oila a‘zolarimiz bir-biriga mehribon. Oilamizdagi tinchlik va ahillikni qadrlayman.

Lug‘at

kishi – человек

davolamoq – лечить

shifokor – врач

qadrlamoq – ценить

bemor – больной

bolalar bog‘chasi –
детский сад

inoq – дружный

ahillik – тесная дружба

1-mashq. Gaplarni to‘ldirib o‘qing, so‘ngra ko‘chiring.

Otam ... ko‘ryaptilar.

Onam ... tikyaptilar.

Buvim ... qarayaptilar.

Singlim ... o‘ynayapti.

Bobom men bilan ... o‘ynayaptilar.

Foydalanish uchun so‘zlar: ko‘ylak, koptok, televizor, shashka, ukamga.



Yodda tuting!

Ota, ona, aka, uka, singil, xola, tog‘a, amaki, amma, bobo, buvi, nabira, qarindosh.

3-topshiriq. Suhbatni o'qing va shu asosda o'zaro suhbatlashing.



SUHBAT

- Assalomu alaykum, amaki.
- Vaalaykum assalom, qizim.
- Amaki, bilasizmi, 5-uy qayerda?
- Ha, bilaman, ana u chap tomondagi 5-uy.
- Rahmat.
- U yerda kim yashaydi, qizim?
- U yerda mening dugonam Vasila yashaydi.
- Xayr, yaxshi bor.

2-mashq. Nuqtalar o'rniga savollar qo'yib, gaplarni ko'chiring va og'zaki javob bering.

1. Dadam ... ketdilar?
2. ... buvimni ko'rgani boradi?
3. Xolam ... keladilar?

3-mashq. Namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Otam buvam bilan keldilar.*

Kim keldi?

- | | | | | | |
|----|-----|-----|-------|--|-----------|
| 1. | ... | ... | bilan | | keldilar. |
| 2. | ... | ... | bilan | | |
| 3. | ... | ... | bilan | | |



Uyga vazifa. «Oila» mavzusida 3–4 ta gapdan iborat matn tuzing.



2-DARS

1-mashq. Ota va onangiz tomonidan qarindoshlaringizning nomlarini namunadagidek yozing.

Namuna:

Bu kishi–Rasul amakim.

Oygul xola–onamning opalari.



SUHBAT

- Go‘zal, sening amaking bormi?
 - Ha, amakim bor.
 - Ular qayerda ishlaydilar?
 - Ular – shifokor. Kasalxonada ishlaydilar.
- Sening amaking bormi?
- Mening amakim ham, tog‘am ham bor.
 - Ular qayerda yashaydilar?
 - Amakim Toshkentda, tog‘am Sirdaryoda yashaydilar.



Bilib oling!

Yoshni ifodalashda sanoq sonlarga «yosh», «yoshda» so‘zlari qo‘shiladi.

Masalan: Ukam **yetti yoshda**. Onamning **yoshlari qirqda**.

1-topshiriq. Oila a‘zolaringizning soni, kasbi, yoshlarini ko‘rsatib, gaplarni o‘qing va matnni davom ettiring.

Bizning oilamizda ... kishi bor. Biz ... xonali uyda yashaymiz. Otam ... yoshdalar. Ular ...

bo'lib ishlaydilar. Onam ... yoshdalar. Ular
Ukam ... yoshda.

2-topshiriq. She'rni ifodali o'qing va mazmunini so'zlab bering.



BIZ KICHIKMIZ, SIZ KATTA

O'rmonlar bor, yaproq bor,
Daryolar bor, irmoq bor.
Katta-kichik do'st bo'lsa,
Yayrab-sayrab yurmoq bor.
Derlar istab yaxshilik:
«Siz kattasiz, biz kichik!»
Bo'lsin barcha hurmatda:
«Siz kichiksiz, biz katta!»...

Qo'llarga qo'l beraylik,
Do'stlarga gul beraylik,
Salom berib kattaga,
Kichikka yo'l beraylik.
Bu hayotga teng sherik,
Siz katta-yu, biz kichik.
Yangrab ketsin, albatta:
«Biz kichikmiz, siz katta!»

Husniddin Sharipov

2-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli qo'shimchalarni qo'yib yozing.

1. Mening aka... (-m, -ng) talaba. U yigirma yosh... (-ga, -da). 2. Buvi... (-ng, -m) biz bilan yashaydilar. Ularning yoshlari

72 ... (-dan, -da). 3. Men 9 yoshda... (-siz, -man). Uchinchi sinf... (-da, -ga) o'qiyapman. 4. Ukam 5 yosh... (-da, -ga) kirdi. U bog'cha... (-dan, -ga) boradi.



Uyga vazifa. 2-topshiriqdagi she'ni yod oling.



3-DARS.

1-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.



- Salom, Aziza.
- Salom. Yaxshi yuribsanmi?
- Ha, yaxshi, ertaga biznikiga oilangiz bilan mehmonga kelinglar.
- Xo'p, qanday tadbir bo'ladi?
- Ertaga buvimning tug'ilgan kunlarini o'tkazamiz.
- ...

2-topshiriq. Matnni o'qing. Matndan foydalanib o'z oilangiz haqida suhbatlashing.

MENING OILAM

Mening ismim Fayzullo. Familiyam Fathullayev. Men Yunusobod tumanidagi 63-maktabning 3-sinfida o'qiyman. Oilamiz juda katta. Menga katta buvamizning ismlarini qo'yishgan. Mening buvam, otam, onam

va beshta akam bor. Buvam juda keksalar. Buvijonim tikuvchi bo'lganlar. Otam – muhandis. Onam – o'qituvchi. Akalarim – talaba. Oilamiz ahil va inoq. Men oilamiz bilan faxrlanaman.

Lug'at

talaba – студент

faxrlanmoq – гордиться

3-topshiriq. She'ni ifodali o'qing. Oila a'zolari-ning nomini daftaringizga ko'chiring.



BIZNING OILA

Bizning oila katta,
Ahil, inoq, albatta.
Bor buvam, buvijonim,
Hammaga mehribonim.

Dadam, onam va opam,
Yana bor akam, ukam.
O'zaro hurmatdamiz,
Oilamiz mustahkam.

Uyga do'stlar kelgan kun
Yoki kelganda mehmon,
Bayram bo'lar biz uchun,
Nurga to'lar xonadon.

Muhiddin Omon

Lugʻat

ahil – дружный

mehribon – любящий, добрый

hurmat – уважение

mehmon – гость

bayram – праздник

nur – луч



Uyga vazifa. 3-topshiriqdagi sheʼrni yod oling.

VIII. KUN TARTIBI



1-DARS

1-topshiriq. Rasm asosida berilgan soʻz va soʻz birikmalaridan foydalanib matn tuzing.

Foydalanish uchun soʻzlar: ertalab turadi, yuz-qoʻlini, badantarbiya, nonushta, maktabga ketadi, kiyinadi, bajaradi, dam oladi, kechki ovqat, oʻynaydi, uxlaydi, tayyorlaydi.

1-mashq. Savollarga og‘zaki javob bering.

- Siz soat nechada turasiz?
- Badantarbiya qilasizmi?
- Soat nechada nonushta qilasiz?
- Qachon maktabga ketasiz?



Bilib oling!

Tinglovchilarga murojaat qilganda hurmat munosabatini ifodalash uchun harakatni bildirgan so‘zlarga **-siz** qo‘shimchasi qo‘shiladi.

Masalan: Qachon kelas**iz**?

Ertalab badantarbiya qilas**iz**mi?

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yib, gaplarni o‘qing.

Men ertalab soat 7⁰⁰ da ... (turaman, ketaman). Badantarbiya ... (qilaman, bajaraman). Nonushta qilib, maktabga ... (boraman, ketaman). Maktabdan soat 13⁰⁰ da ... (boraman, kelaman). Tushlik ... (qilaman, yeyman).



Ifodali o‘qing!

Men sochiqman, sochiqman,
Ko‘ngli doim ochiqman.
Borman har uy, har joyda,
Shayman mehnat bor joyda.

Ziyod Komilov




Uyga vazifa. 2-mashq mazmuni asosida tushlikdan keyin bajaradigan ishlaringiz haqida kichik matn tuzing.



2-DARS

1-mashq. Vagonchalardagi so'zlardan foydalanib gaplar tuzing.



To'g'ri talaffuz qiling!

s va **z** tovushlarini to'g'ri talaffuz qiling!

soat	turas iz	ovqatlanas iz	ziyrak
sochiq	uyg'onas iz	tayyorlays iz	zarur
tasma	yuvinas iz	yotas iz	zirak

2-mashq. O'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ona tilingizga tarjima qiling.

Akbar ertalab soat 7⁰⁰ da **turadi**. Badan-tarbiya qiladi va yuz-qo'lini **yuvadi**. Akbar nonushta qiladi va maktabga **ketadi**. Maktabdan soat 13³⁰ da keladi va tushlik **qiladi**.

Topishmoq



Oyog'i yo'q, yuradi,
Og'zi yo'q, ammo u
qachon uxlashni,
qachon turishni,
qachon ishga borishni
aytib beradi.




Bilib oling!

-dan qo'shimchasi yordamida yasalgan so'zlar ish-harakatning yo'nalishini bildiradi va *qayerdan?* so'rog'iga javob beradi.

3-mashq. So'zlarni bog'lab gaplarni yozing.

Qayerdan?



1-topshiriq. 2-mashqda berilgan gaplarga savollar tuzing.

Namuna: *Akbar ertalab soat nechada turadi?*




Uyga vazifa. O'z kun tartibingizni gapirib bering.

3-DARS

1-topshiriq. Quyida ko'rsatilgan vaqtlardan foydalanib suhbat tuzing.

Namuna: *Siz soat nechada turasiz?*
Men soat oltida turaman.



1-mashq. Quyidagi savollarga javob bering va daftaringizga yozing.

1. Sen soat nechada maktabdan kelasan?
2. Soat nechada tushlik qilasan?
3. Sen qachon dars tayyorlaysan?
4. Soat nechada uxlashga yotasan?

2-topshiriq. Chap ustundagi so'zlarni o'ng ustundagi so'zlarga bog'lab, kun davomida nimalar qilishingizni ayting.

badantarbiya
ertalab
yuz-qo'limni
maktabga
dars
shaxmat
kechqurun

turaman
qilaman
boraman
yuvaman
tayyorlayman
dam olaman
o'ynayman

3-topshiriq. She'ni ifodali o'qing.



KUZATISH

Barvaqt turib,
Yuzim yuvib,
O'z o'rnimni tuzataman.

Hozirlab joy,
Keltirib choy,
Odob-la uzataman.

Ishga oyim
Ketsa doim,
Xayr, deb kuzataman.

Obid Rasul

Lug'at

barvaqt – рано

tuzataman – здесь:правляю

kuzataman – провожаю



Uyga vazifa. She'ni yod oling.

IX. QISH

1-DARS

1-topshiriq. Rasm asosida quyidagi savollarga javob bering.



1. Bu qaysi fasl?
2. Bolalar nimada uchyapti?
3. Qizlar nima yasayapti?



Bilib oling!

Ish-harakatning nutq soʻzlanayotgan paytda sodir boʻlayotganligi **-yapti** qoʻshimchasi vositasida ifodalanadi.

Masalan: Yomgʻir yogʻ**yapti**. Shamol es**yapti**.

1-mashq. Rasmlar o'rniga so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Kun sovuq va



yog'yapti.

2. Bolalar



,



,



va



kiydilar.

3. Karim va Aziza
yasashyapti.



4. Qodir



tortdi.

5. Akam



uchishni o'rgatdi.

6. Anvar



uchyapti.

2-topshiriq. i va y tovushlarini to'g'ri talaffuz qiling va so'zlarni eslab qoling.

ism	kiyim	yil	ayvon
iliq	tiniq	yigit	uyum
ilgak	nima	yaxmalak	paypoq
ip	tilla	yangi	toymoq

2-mashq. Matnni o'qing va ajratilgan so'zlardan foydalanib, berilgan savollarga javob yozing.

Qish keldi va havo sovidi. Kecha **qor yog'di**. Atrofni **oppoq qor** qopladi. Suvlar muzlab, yaxmalak bo'ldi. Bolalar xursand bo'ldilar. Hammaning ustida **palto** yoki **kurtka**, boshida **qalpoq**, qo'lida **qo'lqop**, oyog'ida **etik**. Komil konki uchyapti. Qizlar **qorbobo** yasayaptilar. O'g'il bolalar **chana** uchyaptilar.

1. Nima uchun havo sovidi?
2. Atrofni nima qopladi?
3. Bolalar qanday kiyimlar kiydilar?
4. Qizlar nima yasayaptilar?
5. O'g'il bolalar nima uchyaptilar?

Lug'at

sovimoq – похолодать

atrof – вокруг

qoplamoq – покрыть

muzlamoq – замерзать

yaxmalak – каток, гололёд

qalpoq – шапка
qo'ldop – перчатки, варежки
etik – сапоги
tepalik – холм, горка



Uyga vazifa. 2-mashqdagi lug'atda berilgan so'zlarga 3 – 4 ta gap tuzing.



2-DARS



1-topshiriq. Rasm asosida savollarga javob bering.

Foydalanish uchun so'zlar: muz saroyi, yaxmalak, konki uchish, bolalar, qiziqarli, chiroyli, ulkan.

1. Rasmda qanday bino tasvirlangan?
2. Muz saroyida nimalar bor?
3. Qishda havo qanday bo'ladi?
4. Bolalar nimalarda uchadilar?
5. Qanday o'yinlar o'ynaydilar?

1-mashq. Quyidagi soʻzlardan foydalanib, gaplar tuzing.

Yaxmalak, sovuq, qor, qorbobo, yasadik, konki, uchdi.

2-topshiriq. Sheʼrni ifodali oʻqing.



QISHDA

Rosa maza qish,
Qorlari kumush.
Oq kiygan atrof,
Qish havosi sof.
Konki uchamiz,
Hech charchamay biz,
Goho qorboʻron
Oʻynab, kim chaqqon
Bilib olamiz,
Qoyil qolamiz.

Narimon Orifjonov

Lugʻat

kumush – серебро

sof – чистый

chaqqon – ловкий

qoyil qolmoq – восхищаться



Uyga vazifa. Sheʼrni yod oling.

X. YANGI YIL BAYRAMI



1-DARS

1-topshiriq. Suhbatni davom ettiring.

- Odil, sen qayerga ketyapsan?
- Men do'konga ketyapman.
- Nima olmoqchisan?
- Archa o'yinchoqlarini sotib olmoqchiman.
- ...

2-topshiriq. She'ni ifodali o'qing.



ARCHA QO'SHIG'I

Salom senga, ko'k archa,
Qishin-yozin yashnaysan.
Yaproqlaring ninacha,
Yasangansan, go'zalsan.

Atrofigda aylanib,
Qo'shiq aytib quvnaymiz.
Har birimiz qo'l berib,
Yangi yilni qutlaymiz.

Zafar Diyor



Bilib oling!

Shaxs yoki narsa-buyumning bir-biriga qarashliligi **-ning** qo'shimchasi vositasida ifodalanadi.

Masalan: Qorbob**ning** sovg'asi.

Abror**ning** ukasi she'r o'qidi.

1-mashq. **b** va **p** tovushlarini to'g'ri talaffuz qiling va so'zlarni eslab qoling.

baho

bbo

past

do'**p**pi

barpo

niq**b**

pufak

oppo**p**

bilim

ka**b**ob

pushti

xo'**p**

bugun

be**t**ob

po'la**t**

o'**p**ka

2-mashq. Rasmlar o'rniga so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Dadam  olib keldilar.

2. Archani turli  bilan bezadik.

3. Abror ,  niqoblarini sotib oldi.

4. O'qituvchimiz  bo'ldilar va sovg'a berdilar.

5. Barno  bo'lib, qo'shiq aytdi.

3-topshiriq. Matnni o'qing. **b** va **p** tovushlari bo'lgan so'zlarni topib, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Maktabimiz zaliga archa o'rnatdilar. Biz archani rangli pufaklar bilan bezadik. Turli o'yinchoqlarni osdik. Keyin Yangi yil bazmi boshlandi. Niqob kiygan bolalar archa atrofida

o'ynadilar. Gulnoza she'r aytdi, G'ani qo'shiq kuyladi. Yalmog'iz kampir supurgi minib, Qorqizni quvladi. Biz Qorqizni qutqardik va Qorbobo bizga sovg'a berdi.

Lug'at

o'rnatmoq – установить

bezamoq – украшать

osmoq – повесить

Yangi yil – Новый год

bazm – торжество

niqob – маска

Yalmog'iz kampir –

Баба-яга

supurgi – веник

sovg'a – подарок

4-topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring. Unda **b** va **p** tovushli so'zlarni qo'llang, to'g'ri talaffuz qiling.

– Gulnora, senga archa bayrami yoqdimi?

– Ha, men archa bayramini yaxshi ko'raman.

– Kim Qorbobo bo'ldi, G'iyos akami?

– Yo'q, Turg'un aka Qorbobo bo'ldilar.

– Qorqiz-chi?

– Gulmira Qorqiz bo'ldi. U Yangi yil qo'shig'ini aytdi.

– Kim Yalmog'iz bo'ldi?

–



Uyga vazifa. Siz bayramda nima qilmoqchisiz? Gapirib bering.

2-DARS

1-mashq. Rasmlar asosida savollarga javob yozing.

Bolalar nima qilishyapti?



Akrom nimaning niqobini kiygan?

Qorboboning qo'lida nima bor?



Qorqiz nima qilyapti?

1-topshiriq. She'rni ifodali o'qing.



SALOM, YANGI YIL

Salom, Yangi yil,
Shodlik kunimiz.
Baxtiyor o'tar
Kun-u tunimiz.

Bizlarni bayram
Xo'p sevintirar.
Qorbobo bizga
Sovg'a keltirar.

Keling, bolalar,
Yayrab o'ynaylik.
Yangi yil kuyin
Birga kuylaylik.

Ilyos Muslim

Lug'at

shodlik – радость, веселье

kun-u tun – день и ночь

sevintirmoq – радовать

kuy – мелодия, напев

2-mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi so'zlardan mosini qo'yib o'qing va gaplarni ko'chiring.

1. Maktabda ... (yangi, eski) yil bayrami bo'ldi. 2. Archa juda ... (xunuk, chiroyli) va ... (katta, kichik) edi. 3. Bolalar quyon, tulki, ayiq ... (niqob, rasm)ini kiyib o'ynadilar. 4. ... (Qorbobo, Yalmog'iz kampir) bolalarga ... (ovqat, sovg'a) berdi. 5. ... (quyon, Qorqiz) raqsga tushdi.

2-topshiriq. Rasmlarga qarab, bu nima?, nima qildi? so'roqlari asosida namunadagidek suhbatlashing.

Namuna: *Bu archa o'yinchog'i. O'yinchoqni archaga osdi.*

Bu nima?



Nima qildi?



3-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli qo'shimchalarni qo'yib, daftaringizga yozing.

1. Qishki ta'til... bolalar chana uchadilar.
2. Archa bayrami... mehmonlar keladi. 3. Qor-bobo bolalar... sovg'a beradi. 4. Bolalar qishki ta'til... ko'p o'yinlar o'ynaydilar. 5. Biz Yangi yil bayrami... yaxshi ko'ramiz.



Uyga vazifa. Yangi yil bayrami haqida 2 – 3 ta gap tuzing.

XI. SPORT

1-DARS

1-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Sport nima?
2. Sen sport bilan shug'ullanasanmi?
3. Qaysi sport turlarini bilasan?

1-mashq. Rasmlar asosida lug'atdagi so'zlardan foydalanib, namunadagidek gaplar tuzing.



Namuna: *Anvar yuguradi.*

Lug'at

yugurmoq — бегать
o'ynamoq — играть
sakramoq — прыгать
koptok tepmoq — пинать мяч
kurash — борьба
kurash tushmoq — бороться
suzmoq — плавать
koptok otmoq — бросать мяч

2-mashq. Rasmlar o'rniga sport o'yinlari nomini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Abror bilan Alisher o'ynashdi.



2. Do'stlarim bilan to'garagiga qatnashamiz.



3. Murabbiyimiz o'rgatdi.



4. Nodir bilan shug'ullanadi.



5. Sevara qiziqadi.



Yodda tuting!

Sport o'yinlari nomlarini o'qing, eslab qoling, **sh** tovushini to'g'ri talaffuz qilishga odatlaning.

sakrash

kurash

ko'rish

suzish

shug'ullanish

qatnashish

yugurish

shashka

qiziqish

chopish

shaxmat

yutish

2-topshiriq. Matnni o'qing, undan sport o'yinlarining nomlarini topib, daftaringizga yozing.

Men sport o'yinlariga juda qiziqaman. Birinchi sinfda badiiy gimnastika to'garagiga qatnashdim. Dugonam Gulnora suzishni o'rgandi. Hozir maktabimizdagi shaxmat to'garagiga qatnashyapman. Jamoamiz shashka va shaxmat bo'yicha musobaqada g'olib bo'ldi.

Lug'at

qiziqmoq – интересоваться

badiiy gimnastika – художественная гимнастика

qatnashmoq – участвовать

to'garak – кружок

jamoa – команда

musobaqa – соревнование

g'olib bo'lmoq – побеждать

SPORTCHI QO'SHIG'I

Serquyosh yurtimning mehridan,
Cho'g' olganday oftob sehridan.
Dillarga o't yoqar mash'ala,
Kurashga chorlaydi shu palla.

Kuch-g'ayratga to'lar qalbimiz,
Yurtim, orzu niholingmiz biz.
Biz baxtlimiz, barkamol avlod,
Biz kuchlimiz, baxtiyor va shod.

Sport – do'stlik tantanasidir,
Sport – tinchlik an'anasidir.
Marramiz bir – sog'lik va chidam,
G'alabamiz sen uchun Vatan!

Humoyun Akbarov



Uyga vazifa. O'zingiz yoqtirgan sport turi haqida so'zlab bering.



2-DARS

1-topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing.



SUHBAT

- Ikrom, qayerga ketyapsan?
- Basketbol o'ynashga ketyapman.
- Sen basketbol o'ynashni bilasanmi?
- Ha, sport to'garagida o'rgandim.
- Men ham to'garakka borsam bo'ladimi?
- Albatta. Men bilan yur. Murabbiyimiz xursand bo'ladilar.
- Bo'pti, ketdik.

1-mashq. Tarkibida **-sh** va **-bol** qo'shimchalari bo'lgan sport o'yinlarining nomlarini toping. Bu so'zlarni ikki ustunga joylashtiring.

Namuna:

1-ustun
kurash

...

2-ustun
futbol

...

2-topshiriq. She'rni ifodali o'qing va ajratilgan so'zlarning ma'nosini ayting.



BASKETBOL

Bir qarorga kelsangiz,
Sog'liq g'amin yesangiz,
Bo'yim o'ssin desangiz,
O'ynang doim **basketbol!**
To'p, uch, to'rga tush,
Kayfiyatim bo'lsin xush!

Behzod Hojimatov



Uyga vazifa. 2-topshiriqdagi she'rni yod oling.



3-DARS



1-topshiriq. Suhbat matnini to'ldiring.

- Siz qaysi sport turlarini bilasiz?
- ...
- Qaysi sport o'yinini yaxshi ko'rasiz?
- ...
- Qaysi sport turi bilan shug'ullanasiz?
- ...
- Maktabingizda qanday sport to'garaklari bor?
- ...

2-topshiriq. Sport nima? savoliga so'zlardan foydalanib javob bering. So'z birikmalari tuzing.

Sport nima? 

- sog'lik
- do'stlik
- chiniqish harakat



Yodda tuting!

Sport – salomatlik.

Sport – do'stlik.

Sport – tinchlik.

1-mashq. Nuqtalar o'rnini to'ldiring va ko'chirib yozing.

1. Men ertalab ... bilan shug'ullanaman.
2. Akam ... bilan shug'ullanadi.

3. Maktabimizda ... to'garagi bor.
4. Men sportning ... to'garagiga qatnashaman.

Foydalanish uchun so'zlar: futbol, shaxmat, kurash, badantariya.

2-mashq. «Har bir harfga uchta so'z» mashqi.
Sport, harakat, sog'lik so'zlariga uchtdan so'z yozing.

Namuna: do'st.

don	o't	son	tosh
dono	o'tloq	so'z	tol
davlat	o'rtoq	soz	tikan



Uyga vazifa. Yosh sportchilar haqida ma'lumot to'plab, daftaringizga yozing.

XII. OB-HAVO



1-DARS

1-topshiriq. Rasmlar asosida gaplar tuzing.



2-topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering. Ajratilgan so'zlarni daftaringizga ko'chirib yozing.

OB-HAVO

Bugun **havo** ochiq. Ertalab **salqin** bo'ldi. Tushga kelib havo **isidi**. Kechga borib osmonda **bulut** paydo bo'ldi.

Ob-havo tez-tez o'zgarib turadi.

Bahor, yoz, kuz va qish fasllarining ob-havosi bir-biridan **farq** qiladi.

Lugʻat

havo ochiq – погода ясная

salqin – прохлада

isimoq – теплеть, потеплеть

bulut paydo boʻldi – появилось облако

oʻzgarib turadi – изменяется

farq qiladi – различается

1-mashq. Nuqtalar oʻrniga berilgan soʻzlardan mosini qoʻyib, gaplarni toʻldiring.

Ertalab ... ochiq boʻldi. Osmon bulut bilan Mayin ... esmoqda. Kechalari havo ... boʻladi. Kunduzi ... boʻladi. Koʻcha ..., uy esa

Foydalanish uchun soʻzlar: havo, iliq, salqin, shabada, qoplandi, sovuq, issiq.



Yodda tuting!

Payt maʼnosini bildiruvchi soʻzlar:

hozir

ertalab

bugun

kunduzi

kechasi

kechqurun



Ertalab



Kunduzi



Kechqurun



Kechasi



Uyga vazifa. Paytni bildiruvchi so'zlar yordamida 4 ta gap tuzing.

Namuna: *Kechqurun havo salqin bo'ldi.*



2-DARS

1-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing.



SUHBAT

- Aziza, hozir qaysi fasl?
- Hozir bahor fasli.
- Nodir, ayt-chi, bahorda ob-havo qanday bo'ladi?
- Bahorda ob-havo iliq bo'ladi.
- Bahor havosi senga yoqadimi?
- Ha, bahor havosi menga yoqadi.

1-mashq. Matnni o'qing. Ajratilgan gaplarni ko'chirib yozing.

TABIAT

Barcha **jonzot** uchun havo, suv, quyosh, oziq-ovqat juda zarur. Bularning barchasini **tabiatdan** olamiz. Insonni tabiat **o'stiradi**.

Shuning uchun u «Ona tabiat» deyiladi. Tabiat **musaffo** bo'lsa, inson ham **sog'lom**, baquvvat o'sadi. Tabiatda **hayot uchun** zarur narsalar bor. Bular daryolar, o'simliklar, hayvonlar va boshqalar. Biz ularni **as-rashimiz** kerak.

Lug'at

oziq-ovqat – продукты

jonzot – всё живое

tabiat – природа

sog'lom – здоровый

musaffo – чистый

asrash kerak – здесь:
нужно беречь

2-topshiriq. Tinglang, takrorlang va eslab qoling.

ham

baho

hamma

havo

ahvol

hosil

hozir

mehmon

haykal

2-mashq. Nuqtalar o'rniga gap mazmuniga mos so'zlarni qo'yib ko'chiring.

1. O'simlik, daryo, cho'l, tog'larning umumiy nomi ... (tabiat, atrof-muhit).

2. Daraxtlar uyg'onadigan fasl ... (bahor, kuz).

3. Yorituvchi va isituvchi osmon jismi ... (Oy, Quyosh).

4. Yomg'ir va qor manbayi ... (bulut, suv).

5. Eng issiq fasl ... (yoz, bahor).



Uyga vazifa. Ob-havo haqida 2 – 3 ta gap tuzing.

3-DARS

1-topshiriq. Rasm asosida namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Havo salqin bo'ldi. Bugun issiq.*



Foydalanish uchun so'zlar: sovuq, iliq, kechasi, kunduzi, shamol, fasl, issiq, ochiq havo, bulut.


1-mashq. Matnni o'qing va rasmlar asosida savollarga javob yozing.

BU QAYSI FASL?

Dala, qirlar gullarga burkanadi. Hammayoq chiroyli gullar bilan bezanadi. Daraxtlar uyg'onadi. Dalada ish boshlanadi.



Havo issiq bo'ladi. Mevalar pishadi. Bolalar oromgohlarda dam oladilar. Oromgohlar chiroyli bo'ladi. Bolalar daryoda cho'miladilar.



Dalada yig'im-terim ishlari boshlanadi. Polizda qovuntarvuzlar pishadi. Daraxtlarning barglari sarg'ayadi. Havo soviy boshlaydi.

Hammayoq oq choyshab bilan qoplanadi. Bolalar chana, chang'i, konki uchadilar. Qorbobo, Qorqiz mehmonga keladi.



Uyga vazifa. Topishmoqlarni yod oling.

Qo'lsiz, oyoqsiz gul solar.

(sovuq)

Oppoqqina dasturxon, yer yuzini qoplagan.

(qor)

XIII. BAHOR



1-DARS

1-topshiriq. Rasm asosida namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Bahorda daraxtlar gullaydi.*



Foydalanish uchun soʻzlar: isiydi, uygʻonadi, keladi, koʻkaradi, ochiladi.

Lugʻat

bahor — весна

gullamoq — расцветать

koʻkarmoq — зеленеть

ochilmoq — раскрываться

2-topshiriq. Suhbatni davom ettiring.

- Bahorda qushlar nima qiladi?
- Yurtimizga uchib keladi.
- Ayiq qachon uygʻonadi?
- Ayiq bahorda uygʻonadi.
- Hasharotlar-chi?
-

1-mashq. Matnni oʻqing. Ajratilgan soʻzlarni daftaringizga koʻchirib yozing.

Bahorda kunlar isiydi. Yomgʻir koʻp **yogʻa-di**. **Maysalar** oʻsib chiqadi. Daraxtlar **gullaydi**. Butun **tabiat** yangilanadi. Kuzda uchib ketgan qushlar yana **qaytib keladi**.

Lugʻat

yomgʻir – дождь

yogʻmoq – идти, падать

yangilanish – обновление

qaytmoq – возвращаться

oʻsmoq – расти



Toʻgʻri talaffuz qiling!

ekin

elak

ertalab

chelak

bekat

metro

ertak

echki

etik

3-topshiriq. Berilgan gaplarni o'qing va eslab qoling.

Daraxtlar gullay**di**.

Qushlar uchib kel**adi**.

Havo isiy**di**.

Gullar ochil**adi**.

Yerlar haydal**adi**.

Hasharotlar uyg'on**adi**.

2-mashq. Berilgan so'zlar yordamida gaplar tuzing va daftaringizga yozing.

Namuna: *Bahorda yer haydaladi.*

Bahorda, ko'm-ko'k, ochiladi, isiydi, yer haydaladi, ekin ekiladi, tabiat uyg'onadi.



Uyga vazifa. Yomg'ir, ko'karmoq, isimoq so'zlari ishtirokida 3 ta gap tuzing.



2-DARS

1-topshiriq. Suhbat matnini to'ldiring.

- Hozir qaysi fasl?
- ...
- Bu faslda qanday ishlar bajariladi?
- ...
- Tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?
- ...
- Hozir ob-havo qanday?
- ...

2-topshiriq. Berilgan so'zlardagi **x**–**h** tovushlarini to'g'ri talaffuz qiling va bu so'zlarni eslab qoling.

darax**t**

shox**x**

xil

bahor

maha**ll**a

meh**h**nat

1-mashq. Rasmlarga mos so'zlarni tanlab, gaplar tuzing.



isitadi
chiqadi
nur sochadi

chiqadi
o'sadi
gullaydi



ekiladi
o'sadi
ochiladi

ko'karadi
to'kiladi
o'riladi



3-topshiriq. She'ni ifodali o'qing.



LOLA

Bahor keldi elimizga,
Ko'm-ko'k bo'ldi bog', dala.
Sevinch to'lib dilimizga,
Terib keldik gul – lola.

Qanday rohat bahor chog'i,
Tabiat ham o'zgacha.
Keng Vatanning chaman bog'i,
Yam-yashildir kuzgacha.

Bahor keldi elimizga,
Yashil to'n kiydi dala.
Shodlik to'ldi dilimizga,
Terib keldik biz lola.

Ilyos Muslim



Uyga vazifa. «Lola» she'rini yod oling.



3-DARS

1-topshiriq. Suhbatni o'qing.



- Bahorda qanday ishlar qilinadi?
- Yer haydaladi, ko'chat ekiladi.
- Yana qanday ishlar bajariladi?
- Yuqori sinf o'quvchilari daraxtlarni oq-laydilar, tagini yumshatadilar.

- Kimlar ko‘chat ekadi?
- Barcha o‘quvchilar sinf rahbari bilan ko‘chat o‘tqazadilar.
- Siz nima qilasiz?
- Biz daraxtlarni parvarishlaymiz.

1-mashq. Matnni o‘qing va ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni ona tilingizga tarjima qiling.

BAHORGİ ISHLAR

Bahor keldi. Dalada bahorgi ishlar **boshlandi**. **Dehqonlar** yer haydaydilar. Bog‘larga mevali **daraxtlar** ekadilar. **Bog‘bon** nihollarni parvarish qiladi. Daraxtlarni **sug‘oradi**.

Lug‘at

ko‘chat – саженец, рассада

yer haydamoq – пахать землю

nihol – молодой росток

parvarish qilmoq – ухаживать



Bilib oling!



-gi qo‘shimchasi so‘zlarga qo‘shilib, paytgga nisbatan munosabatni ifodalovchi sifatlarni yasaydi.

Masalan: bahor (весна) – **bahorgi** (весенний), yoz (лето) – **yozgi** (летний).

2-topshiriq. Savollarga 1-mashqdagi matndan foydalanib javob bering.

1. Dalada qanday ishlar boshlandi?
2. Kimlar yer haydaydilar?
3. Bog‘bon nima qiladi?
4. Bog‘bon nimalarni sug‘oradi?

2-mashq. Gaplarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib yozing.



Uyga vazifa. Bahorgi ishlar haqida 3 – 4 ta gap tuzing.

XIV. GULLAR



1-DARS

1-topshiriq. Berilgan rasm asosida namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Bahorda boychechak ochiladi.*



Foydalanish uchun so'zlar: moychechak, lola, chuchmoma.

2-topshiriq. She'rni ifodali o'qing.



Hali erimasdan qor,
Dala, qirda gulbahor.
Chiqdi mitti gulchechak
May elchisi –
Boychechak.

Ilyos Muslim



Yodda tuting!

d tovushi ko'pincha so'z oxirida jarangsiz talaffuz qilinadi va **t** tarzida aytiladi.

Masalan: qand–qant kabi.

3-topshiriq. Berilgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling, **d** tovushining ishlatilishiga e'tibor bering.

avlod		aytdi
obod	d = t	ketdi
baland		yetdi
xursand		tutdi

1-mashq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirokida yangi gaplar tuzing.

Bahor kelib, hamma yoqda gullar **ochildi**. Qirlar qip-qizil lolaga, ariq bo'ylari **binafsha** va **chuchmomalarga** burkandi. Hovlimizga turli gullar ekdik. Men ularga suv quydim. Gullarni yaxshi **parvarish qildik**. Ular chiroyli bo'lib ochildi.

Lug'at

qir – возвышенность, холмистая степь

ariq bo'ylari – здесь: на берегах арыка

hovli – двор

gulzor – цветник

ekmoq – сажать, посадить



Uyga vazifa. Savollarga javob yozing.

1. Sizga qanday gullar yoqadi?
2. Nima uchun?



2-DARS

1-topshiriq. Rasmlar ostidagi so'zlardan foydalanib, gullarning nomi va rangini ayting.

Namuna: *Bu lola. Uning rangi qizil.*



moychechak



atirgul



nilufar



chinnigul



lola

Lug'at

atirgul — роза

nilufar — лилия, лотос

moychechak — ромашка

chinnigul — гвоздика

lola — тюльпан

1-mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, daftaringizga ko'chiring.

1. Onam do'kondan gultuvak ... (olib keldilar, sotdilar). 2. Unga gul ... (oldik, ekdik). 3. Chinnigul ... (chiroyli, qizil) bo'lib ochildi. 4. Ko'chamizga atirgul ... (ochdik, o'tqazdik) va obod qildik. 5. Chinnigullar ... (ketdi, ochildi) va biz ... (xursand, hayron) bo'ldik.

2-mashq. Quyidagi so'z birikmalari ishtirokida namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Bobom bilan har xil gullar o'tqazdik.*

Ko'chat ekish, bog' yaratish, parvarish qilish, yer chopish.

3-mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi qo'shimchalardan mosini qo'ying.

1. Bog'da bahor... (-da, -gi) ishlar boshlandi. 2. Bahor... (-gi, -da) gullar ochiladi. 3. Bog'da yoz... (-gi, -di) mevalar pishdi.



Uyga vazifa. Berilgan so'zlar ishtirokida 2 ta gap tuzing.

Foydalanish uchun so'zlar: hovlimizda, ochildi, atirgul, bo'ladi, oq, qizil, sariq, pushti, rangda.

1-topshiriq. Dialoglarni rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.


- Anvar, ayt-chi, bahorda qanday gullar ochiladi?
- Avval binafsha, chuchmomalar ochiladi.
- Ular qayerda o'sadi?
-

* * *


- Gulnora, gul do'koni qayerda?
- Chap tomonda gul do'koni bor. Nega so'rayapsan?
- Onamga gul olmoqchiman.
- Qanday gullardan olmoqchisan?
-

1-mashq. «Lola» so'zidan so'z birikmalari hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: *Qizil lola. Lola qizil rangda bo'ladi.*



2-topshiriq. Rasmlar asosida gaplar tuzing.



Namuna: *Hovlimizda lola ochildi.*

Foydalanish uchun so'zlar: lola, qizg'aldoq, gullar, binafsha.

2-mashq. Matnni o'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirokida yangi gaplar tuzing.

Bahorda dehqonlarning **yumushlari** ko'payadi. Dehqonlar yerni haydab, ekin ekishga **tayyorlanishadi**. Bahor kelishi bilan bog'bonlarning ishi ham ko'payadi. Ular daraxt ko'chatlarini **o'tqazadilar**. Ariqlarni **tozalaydilar**. Gullar **ekadilar**. Bu ishlarda o'quvchilar ham **faol** qatnashadilar.

Hasharda mahalla va yo'llar, xiyobon va bog'lar **tartibga keltiriladi**. Hashar kishilarni **yaxshi** ishlarga undaydi. Shuning uchun hashar milliy qadriyat sifatida e'zozlanadi.

Lugʻat

yumush – работа

koʻchat oʻtqazmoq – сажать саженцы

tozalamoq – чистить

faol – активный

hashar – хашар, помощь

3-topshiriq. Sheʼrni ifodali oʻqing va mazmunini soʻzlab bering.



ASALGUL

Gulni koʻrib gulgʻuncha

Qomatini egdi sal.

Hidlay-hidlay, dedi soʻng:

– Buncha boʻlmasang goʻzal!

Bolari kelib qoʻndi

Oʻsha gulga bir mahal.

Gulni oʻpib, dedi u:

– Buncha boʻlmasang asal.

Abdurahmon Akbar



Uyga vazifa. «Asalgul» sheʼrini yod oling.

XV. BAYRAMLAR

1-DARS

1-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Bir yilda nechta fasl bor?
2. Hozir qaysi fasl?
3. Bahorda qanday bayramlar nishonlanadi?

1-mashq. Berilgan rasm asosida namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Onamni bayram bilan tabriklayman.*



Foydalanish uchun soʻzlar: buvimni, onamni, opamni, singlimni, sovgʻa, xursand boʻlmoq.

2-topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering.

ONAJONLAR BAYRAMI

Bugun sakkizinchi mart. Bu kunda butun dunyoda onalar bayrami nishonlanadi. Men ham onamni tabriklayman. Har bir oilada ona eng aziz inson sanaladi. Onalar mehri bilan bolalar ulg'ayadi. Onalar so'zi bilan tinchlik, yaxshilik bo'ladi. Har bir kishi o'z onasini sevishi kerak.

Lug'at

bayram – праздник

ulg'aymoq – повзрослеть

mehr – любовь; милосердие

aziz – дорогой, милый


yaxshilik – доброта

sanalmoq – считаться

nishonlamoq – отмечаться

3-topshiriq. Berilgan so'zlardagi **-ni** qo'shimchasini to'g'ri talaffuz qiling. Gap namunasini eslab qoling.

Onam**ni**
Buvim**ni**
Xolam**ni**
Ammam**ni**



tabriklayman.

2-mashq. Suhbat matnlarini ko'chirib yozing va eslab qoling.

- Buvijon, bayramingiz qutlug' bo'lsin!
- Rahmat, qizim.
- Baxtimizga doim sog' bo'ling.
- Sen ham omon bo'li!

* * *

- Ustoz, bayramingiz bilan tabriklaymiz!
- Sizlarni ham tabriklayman.
- Bu gullar–sizga!
- Katta rahmat, bolalar!

3-mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Buvijonim juda ... (mehribon, yosh).
2. Hammamiz ... (buvi, amma)mni yaxshi ko'ramiz.
3. Otam onamga ... (kitob, gul) keltirdilar, men ... (sovg'a, ovqat) berdim.
4. Abror buvisiga ... (sog'liq, yomg'ir) tiladi.
5. Singlimga qanday sovg'a ... (tabriklay, olay)?



Yodda tuting!

Undosh tovushlar ko'proq so'z oxirida jarangsiz talaffuz qilinadi. Qiyoslang va eslab qoling.

b > p
maktab

d > t
murod

z > s
boramiz

kitob
kabob

baland
qand

og'iz
qog'oz

4-topshiriq. She'rni ifodali o'qing.



ONAJONLAR BAYRAMI

Sakkizinchi mart bugun,
Onajonlar bayrami.
Yo'llariga poyandoz
Dasta gullar boylami.
Biri gul, biri bulbul—
O'g'il, qizlar shod bugun.
Mehridan gul tutadi
Mehribon ona uchun.
A'lo baho sovg'amiz,
Onajonlar, assalom!
Hamisha ta'zimdamiz,
Mehribonlar, assalom!

N. Toshpo'lat



Uyga vazifa. 2-mashqdagi suhbat matnlaridan foydalanib, 8-mart bayramiga atab tabriknoma yozing.



2-DARS

1-mashq. Dialogni davom ettiring va daftaringizga ko'chiring.

- Bolalar, bugun qanday kun?
- Men aytay.

– Mayli, Aziza, sen ayta qol.

–

* * *

– O‘qituvchimizni kim tabriklaydi?

– Men tabriklay.

– Yo‘q, Lola tabriklaydi.

– Men sovg‘ani beray.

–



Yodda tuting!

Istak, iltimos ma‘nosining ifodalanishi:

Men $\left\{ \begin{array}{l} \text{tabriklay.} \\ \text{o‘qiy.} \\ \text{aytay.} \end{array} \right.$

Biz $\left\{ \begin{array}{l} \text{tabriklaylik.} \\ \text{o‘qiylik.} \\ \text{aytaylik.} \end{array} \right.$

1-topshiriq. Matnni o‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma‘nosini ayting.

Ertaga 8-mart **bayrami**. O‘qituvchi opamiz sinfga kirdilar. Sardor: «Men **tabriklay**, xo‘p-mi?» – dedi. Lola: «Men gullarni beray», – dedi. Biz **rozi bo‘ldik**. Sardor: «Sizni bayram bilan tabriklaymiz. Hamisha **sog‘ bo‘ling**», – dedi. Lola gullarni berdi. Nodir o‘zi yasagan **haykalchani sovg‘a** qildi. O‘qituvchimiz **juda xursand** bo‘ldilar.

2-mashq. Rasmlar asosida gaplarni to'ldiring va ko'chirib yozing.

Anvar?

Anvar buvisini tabriklayapti.



- Bu nechanchi sinf?
- Bu
- O'quvchilar nima qilyaptilar?
-

2-topshiriq. She'rni ifodali o'qing.



ONAJONIMGA

Mehri oftob bo'lgan,
Har so'zi kitob bo'lgan,
Yog'-u qaymoq, murabbo,
Oy kulgan shirin kulcham,
Jahon onajonimsiz.
Yulduzni uzib beray,
Kunduzni tuzib beray.
Vatan axir chaman-ku,
Kunduzimsiz ham kecham,
Osmon onajonimsiz.

G'afur G'ulom



Uyga vazifa. 2-topshiriqdagi she'rni yod oling.

3-DARS

1-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.

- Anvar, ertaga qanday bayram?
- Ertaga Navro'z bayrami.
- Navro'z qanday bayram?
- Navro'z – bahor bayrami.
- ...

2-topshiriq. Berilgan rasmlar asosida namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Sumalak pishirdik. Qo'shiq aytdik.*



3-topshiriq. Matnni o'qing. Savollar tuzing.

NAVRO'Z – YANGI KUN

Navro'z bayrami 21-martda nishonlanadi. 21-martda kechasi bilan kunduzi teng bo'ladi. Quyosh shu kundan boshlab baland ko'tariladi. Kunlar uzayadi. Hamma yerda xalq sayillari boshlanadi. Biz ham bayram tantanalarida qatnashdik. O'yin o'ynab, raqsga tushdik. Qo'shiq tingladik. Katta qozonda sumalak pishdi. Sumalak mazali ekan. Bayram tomoshalarini ko'rdik va juda xursand bo'ldik.

Lug'at

teng bo'lmoq – уравниваться


uzaymoq – продлиться

sayil – народное гулянье

tinglamoq – слушать

xursand – радостный

1-mashq. Gaplarni o'qing, **-dik** qo'shimchasining yozilishini eslab qoling va daftaringizga yozing.



2-mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Hovlimizda ... (hashar, Navro'z bayrami)ni nishonladik. 2. Buvijonlar qozonda ... (somsa, sumalak) pishirdilar. 3. Onajonlar turli ko'katlardan ... (palov, somsa) pishirdilar. 4. Bolalar ... (arg'imchoq, chana) uhdilar. 5. Anvar bilan Diyor ... (tennis, kurash) tushdilar.



Uyga vazifa. 3-topshiriqdagi lug'atda berilgan so'zlarni yodlang.


XVI. UY HAYVONLARI VA PARRANDALAR

1-DARS

1-mashq. Rasmlar asosida lug'atdagi so'zlardan foydalanib, namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna:

- Bu nima?
- Bu sigir.
- U nima qiladi?
- U sut beradi.



Qo'y (jun va go'sht bermoq)



Echki (sut va go'sht bermoq)



Ot (yuk tashimoq)



It (uyini qo'riqlamoq)

Lugʻat

sigir – корова

sut – молоко

qoʻy – баран

jun – шерсть

ot – лошадь

echki – коза

it – собака

goʻsht – мясо

yuk tashimoq – тащить груз

qoʻriqlamoq – охранять



Bilib oling!

-cha, -choq qoʻshimchalari shaxs, hayvon va narsalarni bildiruvchi soʻzlarga qoʻshilib, ularni kichraytirish-erkalash maʼnolarini ifodalaydi.

1-topshiriq. Matnni oʻqing, uy hayvonlari va ularning bolalari nomini eslab qoling.

Togʻam qishloqda yashaydilar. Ular uy hayvonlarini boqadilar. Togʻam ularni menga koʻrsatdilar. Bu ot, uning bolasi – toychoq. Bu sigir, uning bolasi – buzoq. Bu qoʻy, uning bolasi – qoʻzichoq. Bu itimiz Olapar, uning bolalari – ikkita kuchukcha ham bor.

2-mashq. Matn mazmuni asosida quyidagi gaplarni toʻldiring va daftaringizga koʻchiring.

Otning bolasi –

Sigirning bolasi –

Qoʻyning bolasi –

Itning bolasi –

Echkining bolasi –

Mushukning bolasi –

2-topshiriq. -cha, -choq qo'shimchasini olgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va eslab qoling.

mushuk**cha**

toy**choq**

kuchuk**cha**

qo'zi**choq**

uloq**cha**

buzoq**cha**



Uyga vazifa. Uy hayvonlari nomini daftaringizga yozing.



2-DARS

1-topshiriq. Suhbatni o'qing.



SUHBAT

- Amaki, sigiringiz bormi?
- Ha, sigir boqaman.
- Ayting-chi, u nima yeydi?
- Sigir o't va yem yeydi.
- Ot, qo'y va echkilar nima yeydi?
- Ular ham o't va yem yeyishadi.
- Itga nima berasiz?
- Itimga ovqat va suv beraman.

2-topshiriq. O'zingiz bilgan (boqqan) uy hayvoni haqida shunday gaplar tuzib, matnni davom ettiring.

Uyimizda bitta qo'y va uning ikkita qo'zi-chog'i bor. Men qo'y va qo'zichoqlarga suv,

beda va yem beraman. Ularni boqishni yaxshi ko'raman...

1-mashq. Topishmoqlarni o'qing va javobini daftaringizga yozing.

Hovlida ko'p xizmati,
Ovqatda yo'q izzati.



Quyondan emas, uzunquloq,
Ot emas, temir tuyoq.



3-topshiriq. She'ni ifodali o'qing, mazmunini so'zlab bering.



SIGIRIM

Sigirimni boqaman –
Maza qilib maysa yer.
Dadamga ham yoqaman –
«Barakalla, o'g'lim», –der.
Sigiri bor har uyga
Baraka-yu qut kelar.
Mehnatimga rahmat deb,
Chelak-chelak sut berar.

Habib Rahmat



Uyga vazifa. 3-topshiriqdagi she'ni yod oling.

1-topshiriq. Rasm ostidagi so'zlardan foydalanib, namuna asosida «U nima qilyapti?» so'rog'iga javob bering.

Namuna: *Bu – tovuq. Tovuq don yeyapti.*



Tovuq



don yemoq



O'rdak



suzmoq



Kurka



suv ichmoq



Xo'roz



qichqirmoq

Lug'at

tovuq – курица

don – зерно

yemoq – кушать, есть

o'rdak – утка

suzmoq – плавать

ichmoq – пить

xo'roz – петух, петушок

kurka – индюк

1-mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. O'rdaklar ... (yo'l, suv)da suzadi.
2. Qo'shnimizning ... (tovuq, mushuk)lari don yeyapti.
3. Nodir ... (xo'roz, tovuq) qichqirganini eshitdi.
4. ... (Qo'y, kurka)ning bo'yni uzun.
5. Uy parrandalari ... (go'sht, don) yeydi.

2-topshiriq. She'ni ifodali o'qing, xo'roz nima deganini aytib bering.



XO'ROZ

Qichqiraman quyosh ham
 Chiqmay o'z yotog'idan.
 Shunga o'rgatgan Botir
 Chaqaloqlik chog'imdan.

Uyg'onar, tez yuvinar,
Men qichqirganim zamon,
Dadasi bilan berar
Do'stlarning suv-u donin.
Menga tegma, Olapar,
Botirning xo'roziman.
Meni hurmat qilsanglar,
Xizmatimga roziman.

Abdulla Jabbor

2-mashq. Matnni o'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Hovlimizda o'nta tovuq va bitta xo'roz **boqamiz**. Maktabdan kelib, ularga **suv va don** beraman. Tovuqlarim tuxum beradi. Qora tovuq **jo'ja** ochdi. Ona tovuq va jo'jalarga yangi **uycha** yasadi. Qo'shnimiz esa **o'rdak** boqadi. O'rdakchalar bog'dagi hovuzchada **suzishadi**. Ular oppoq va chiroyli.

Lug'at

tuxum – яйцо

qora – чёрный

jo'ja – цыплёнок

qo'shni – сосед

hovuzcha – пруд

oppoq – белый, беленький

3-topshiriq. Savollarga javob bering.

– O'rdak nima yeydi?

–

- Jo‘jalar nima yeyishadi?
-
- Tovuq nima beradi?
-
- O‘rdakchalar qayerda suzadi?
-

4-topshiriq. Topishmoqlarni o‘qing. Javobini toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

1. Boshi taroq,
Dumi o‘roq.



2. Onasi aytar: qu-qu,
Bolasi aytar: chip-chip.



Uyga vazifa. Jadvalni daftaringizga ko‘chiring va uni to‘ldiring.

O‘t va yem yeydigan hayvonlar	Go’sht yeydigan hayvonlar	Sut beradigan hayvonlar	Tuxum beradigan parrandalar

XVII. YOVVOYI HAYVONLAR VA QUSHLAR

1-DARS

1-topshiriq. Rasmda tasvirlangan hayvonlar nomini ayting.



1-mashq. Yovvoyi hayvonlar haqida namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Bu –yo‘lbars. U o‘rmonda yashaydi.*

Bu timsoh. U

Bu kiyik. U

Bu quyon. U

Bu oq ayiq. U

Lug'at

yo'lbars – тигр
timsoh – крокодил
kiyik – олень
quyon – заяц
ayiq – медведь

fil – слон
bo'ri – волк
tulki – лиса
olmaxon – белка
yashamoq – жить,
проживать



Bilib oling!

Ham, xuddi so'zlari ta'kidlash, qiyoslash-o'xshatish ma'nolarini ifodalashda qo'llanadi.

Masalan: Filni Ahror **ham** ko'rgan. Boyo'g'li **xuddi** burgutday chaqqon.

2-topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

Yovvoyi hayvonlar tabiat bag'rida yashaydi. Timsoh suvda yashaydi. Kaklik kulrang qush. U tog'da yashaydi. Qushlar daraxt shoxlariga qo'nadi. Ba'zi yovvoyi hayvonlar qo'riqxonalarda boqiladi. Yo'lbars ham bo'ri kabi go'sht yeydi. Sher xuddi yo'lbars kabi yirtqich. Kiyik esa yuvosh hayvon. U xuddi kenguru kabi tez chopadi.

Lug'at

tabiat bag'rida – на лоне природы
chopmoq – бегать
kulrang – серый
shox – ветка
qo'nmoq – садиться

qo'riqxona – заповедник

yirtqich – хищник

yuvosh – смирный, спокойный



Yodda tuting!

Fil o'rmonda (qayerda?) yashaydi. Sigir uyda (qayerda?) boqiladi.

2-mashq. Savollarga javob yozing.

1. Qayerda hayvonlar ko'p bo'ladi?
2. Tuya qayerda yashaydi?
3. Kamayib qolgan hayvonlar qayerda saqlanadi?
4. Kiyikni qayerda ko'rgansiz?
5. Echki qayerda boqiladi?



Uyga vazifa. Uy va yovvoyi hayvonlarni ikki ustunga ajratib yozing.



2-DARS

1-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Sen yovvoyi hayvonlardan qaysilarini bilasan?
2. Ular qayerda yashaydi?
3. Qanday hayvonlar qo'riqxonalarda boqiladi?

1-mashq. Qavs ichidagi so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Bo'ri ham (timsoh, tulki) kabi to'qayda yashaydi. 2. Bug'u xuddi (fil, kiyik)day, ammo shoxi katta. 3. Olmaxon ham (ayiq, maymun) day chaqqon. 4. Ayiqning oyoqlari xuddi (fil, quyon)nikiday baquvvat. 5. Akula ham (yo'lbars, kit) kabi dengizda yashaydi.

2-topshiriq. She'rni ifodali o'qing, mazmunini so'zlab bering.



QUYON

O'rtoqlarim ismimni
Ziyrak Quyon deydilar.
Bo'ri yurgan yo'llarga
Ko'zi giryon deydilar.
Bo'ridan-ku, qo'rqmayman,
Afti uning tasqara.
Qachon ko'rsam, hammaga
Bo'lib yurar masxara.
O'sha Bo'ri o'zini
Chopag'on deb o'ylaydi.
Menga «Senmi, shoshmay tur!» –
Deyishini qo'ymaydi.

Abdurahmon Akbar



Uyga vazifa. 2-topshiriqdagi she'rning to'rt qatorini yod oling.

3-DARS

1-mashq. Rasmlardagi qushlarning nomi, rangi va sanog'ini ko'rsatib, namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna:
U bitta.



Bu kaptar. Uning rangi oq.



Lug'at

chumchuq – воробей

kaklik – куропатка

laylak – аист

turna – журавль

kaptar – голубь

oqqush – лебедь

burgut – орёл

qaldirg'och – ласточка

musicha – горлинка

to'ti – попугай

1-topshiriq. Matnni o'qing, shu asosida o'zingiz qushlarni qanday boqishingizni aytib bering.

Nodir qushlarni juda yaxshi ko'radi. Hovli-sida juda ko'p qush boqadi. Dadasi esa bedana boqadi. Uni qafasga solib, ko'tarib yursa bo'ladi.

Aziz esa kaptarlarni yoqtiradi. Har kuni ularni uchiradi. Uning kaptarlari baland uchadi. Keyin hushtak chalib chaqiradi, ayvonga don sepadi.

Singlisi Nasiba to'tilarga qaraydi. Ular qafasda. Nasiba qafasni ochib, to'tilarga suv va don beradi.

Lug'at

qafas – клетка

ko'tarmoq – поднять

uchirmoq – дать

возможность улететь

don – зерно

ayvon – веранда

sepmoq – сыпать

2-topshiriq. She'rni ifodali o'qing. **k, q, g'** tovushlarini to'g'ri talaffuz qiling.



YAXSHI SO'Z

Uchrashib qoldi

Burgut va kaptar.

Biri biridan

Hol-ahvol so'rar:

–Nima gap tog'da?

–Tinchlik tog'larda!

–Nima gap bog‘da?
–Tinchlik bog‘larda!
Dil ravshan tortib,
Chaqnar edi ko‘z.
Hammaga yoqar
Tinchlik degan so‘z.

Habib Rahmat

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga gap mazmuniga mos so‘zlarni qo‘ying va gaplarni ko‘chiring.

1. Musicha ...(ga) in qo‘ydi. 2. Bulbul ...(ga) qo‘nishni yaxshi ko‘radi. 3. Erkin ...(ga) in o‘rnatdi. 4. Dildora sa‘vani ...(ga) soldi. 5. Lochin ...(ga) qo‘na oladimi?

Foydalanish uchun so‘zlar: qafas, daraxt, gul, ayvon, suv.



SUHBAT

- Abror, sen to‘ti boqasanmi?
- Ha, ikkita to‘tim bor.
- Ular nima yeydi?
- To‘tilar don yeydi.
- To‘tilaring sayraydimi?
- Albatta, ular yoqimli sayraydi. Sen ham qush boqasanmi?
- Ha, kaptarlarim bor, beshta.
- Ular qafasdami?
- Ularga katta uycha yasaganmiz.

3-mashq. Rasmlardagi hayvon, parranda va qushlarning nima qilishini ayting.

Namuna: *Musicha uchadi. Qurbaqa sakraydi.*



Foydalanish uchun so'zlar: yurmoq, uchmoq, suzmoq, qo'nmoq, sakramoq, yugurmoq.

Lug'at

uchmoq – летать
suzmoq – плавать
sakramoq – прыгать
sayramoq – петь
yugurmoq – бежать



Uyga vazifa. 3-mashqda tasvirlangan hayvonlar haqida kichik gaplar tuzing.

XVIII. HAYVONOT BOG'IDA



1-DARS

1-topshiriq. Rasm asosida savollarga javob bering.



1. Hayvonot bog'iga kim bilan bordingiz?
2. U yerda qanday hayvonlarni ko'rdingiz?
3. Qafasda qanday hayvonlar bor ekan?
4. Qanday qushlarni ko'rdingiz?

Foydalanish uchun so'zlar: akam bilan, yovvoyi hayvonlar, maymun, kiyik, sher, to'ti, burgut, jirafa, zebra, katta, yuribdi, tomosha qildim.



Bilib oling!

Ilgari bo'lib o'tgan voqea-hodisalarni hikoya qilishda **edi**, **ekan**, **emish** to'liqsiz fe'llari ishlatiladi.

Masalan: *Abror kecha hayvonot bog'iga borgan **edi**. Umida bo'rini ko'rgan **ekan**.*

1-mashq. Matnni o'qing, mazmunini qayta hikoya qiling. **Ekan** so'zi qatnashgan gaplarni daftaringizga ko'chiring.

Dadam, onam va men hayvonot bog'iga bordik. Qafaslarda turli hayvonlar bor ekan. Mana ayiq, yonida ikkita ayiqcha ham bor. Tulki inidan boshini chiqarib turibdi. Katta qafasda kiyiklar bor ekan. Ularning shoxi kalta. Hovuzda uchta timsohni ko'rdim. Yonidagi qafasda quyonchalar yuribdi. Quyonchalarning rangi oq va qora.

Lug'at

hayvonot bog'i – зоопарк

rang – цвет

in – гнездо

shox – здесь: рога

2-mashq. Qavs ichidagi so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chirib yozing va ona tilingizga tarjima qiling.

1. Yakshanba kuni singlim bilan (maktabga, hayvonot bog'iga) borgan edik.

2. Hayvonot bog'ida ko'p (mashinalar, hayvonlar) bor ekan.

3. Katta timsoh (tuproqda, suvda) suzar edi.

4. Bir (qafasda, tog'da) maymun bolalari bilan yashar ekan.

5. Katta qafasda chiroyli (kiyik, to'ti) say-rar edi.



Uyga vazifa. 1-mashqda tasvirlangan hay-vonlar haqida kichik gaplar tuzing.



2-DARS

1-topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.



SUHBAT

Hayvonot bog'ida

- Salom, Rahim!
- Salom, Hamida!
- Sen hayvonot bog'ida nimalarni ko'rding?
- Men kiyik va bo'rini ko'rdim. Sen-chi?
- Men quyon bilan ayiqni ko'rdim.
- Qanaqa ayiqni ko'rding?
- Oq ayiqni ko'rdim.
- Bo'ri qanday ekan?
- Bo'ri itga o'xshar ekan...

1-mashq. Uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarni ayting. Shunga qarab, quyida berilgan hayvon nomlarini ustunchalarga ajratib yozing.

Olmaxon, kiyik, sher, tulki, sigir, begemot, maymun, bo'ri, yo'lbars, ot, jirafa, quyon,

tipratikan, ayiq, qo'y, bug'u, echki, kuchuk, eshak, kenguru, mushuk, to'ng'iz, tuya, fil.

2-topshiriq. She'rni ifodali o'qing va mazmunini so'zlab bering.



ECHKI VA ESHAK

Echki kiyibdi etik,
Yana bo'libdi tetik.
Kiyibdi to'rt oyoqqa,
Chopqillabdi har yoqqa.

Eshak qilibdi havas,
Ammo etik topilmas.
Har kun bozor boribdi,
Topolmasdan horibdi.

Alam qilib tobora,
Yurar eshak bechora.
Eshak, eshak, bechora,
Etik uchun ovora.

Po'lat Mo'min



Uyga vazifa. Hayvonot bog'ida o'zingiz ko'rgan qushlar nomini alifbo tartibida yozing.

3-DARS

1-mashq. Savollarni o'qing va javob bering. Javoblarni daftaringizga yozing.

- Hayvonot bog'ida nimalar bor?
-
- Yovvoyi hayvonlar nimada saqlanadi?
-
- Hayvonot bog'ida qanday qushlar bor ekan?
-
- Hayvonlarni nima bilan boqishadi?
-



To'g'ri talaffuz qiling!

m – n tovushlarini to'g'ri talaffuz qiling!

maymun	ammo	novcha	tandir
mushuk	omon	narvon	tanga
momiq	tamom	ninachi	qo'ng'iz
mumkin	tamg'a	nozik	qanot

2-mashq. Berilgan rasm asosida va o'zingiz ko'rgan multfilmdagi hayvonlarni ta'riflab, namuna-dagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Simbaning yungi sariq. U jasur va chaqqon.*



3-mashq. Berilgan soʻzlarni tartib bilan qoʻyib, gaplar tuzing.

1. Katta, bor, shahrimizda, hayvonot bogʻi.
2. Chiroyli, qafasdagi, ekan, toʻtilar.
3. Xartumi, uzun, edi, oʻsha filning.
4. Ikkita, yurgan ekan, bogʻda, tovus.

1-topshiriq. Ertakni oʻqing va mazmunini soʻzlab bering.

Bir bor ekan, bir yoʻq ekan, bir it bor ekan.
U juda ochkoʻz ekan.

Bir kuni shu it sheriklari bilan talashib, katta suyakni olib qochibdi. Suvdan oʻtaman desa, suvda bir it ogʻzida suyak tishlab, unga qarab turgan ekan. It: «Irr-ir», – deb tishini irjaytirgan ekan, suv ichidagi it ham tishini irjaytiribdi.



Qizg'anchiq it uning og'zidagi suyakni ham olmoqchi bo'libdi. «Hap», – deb itga tashlanibdi. «Hap», – deyishi bilan og'zidan suyak suvga tushib ketibdi. Shunday qilib, qizg'anchiq it suyagidan ayrilgan ekan.

O'zbek xalq ertagi

Lug'at

ochko'z – ненасытный; жадный

suyak – кость

sherik – здесь: собрат, сородич

irjaymoq – скалиться

qizg'anchiq – жадный

tashlanmoq – бросаться

og'zida – во рту

ayrilmoq – лишаться



Uyga vazifa. «Hayvonot bog'ida» mavzusida hikoya tuzib, so'zlab bering.

XIX. YOZ



1-DARS

1-topshiriq. «Oromgohda» mavzusida rasmga qarab gaplar tuzing.



Foydalanish uchun soʻzlar: oromgoh, daryo, dam oldik, salqin, kimdir, togʻga, choʻmiladi, chiniqadi.

1-mashq. Matnni oʻqib, sarlavha qoʻying.

Yozda kunlar issiq boʻladi. Bogʻda mevalar pishadi. Tabiat yanada goʻzal boʻladi. Oʻquvchilarning taʼtil kunlari boshlanadi. Kimdir qishloqqa dam olishga, kimdir oromgohlarga joʻnab ketadi. Oromgohda har xil oʻyinlar oʻynaydilar, daryoda choʻmiladilar. Kitob oʻqiydilar, sayohatga chiqadilar.

Lugʻat

yoʻz kunlari – летние дни

issiq – жарко

oromgoh – лагерь

kimdir – кто-то

choʻmilmoq – купаться

goʻzal – прекрасный

taʼtil – каникулы

har xil – разный

fasl – время года

chiniqmoq – закаляться

2-mashq. Nuqtalar oʻrniga tegishli soʻzlarni qoʻyib, daftaringizga yozing.

Yoz fasli ... – iyun, iyul va avgust. Bogʻda ... pishadi. Yozda ... kunlari boshlanadi. Bolalar ... choʻmiladilar. Men yoz faslini

Foydalanish uchun soʻzlar: mevalar, taʼtil, uch oydan iborat, koʻlda, yoqtiraman.



Yodda tuting!

Dala

Sayohat

ga — bordim.

2-topshiriq. Sheʼrni ifodali oʻqing va yod oling.



YOZDA

Keldi yoz chogʻi,
Koʻkda gʻoz uchdi.

Oromgoh qo'yni
Bizlarni quchdi.

Yayraymiz cheksiz,
Dam olib bu chog'.
Maza ko'l, dengiz,
Keng yaylov, o'tloq...

Ilyos Muslim

3-topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering.

YOZ – O'TADI SOZI!

Yoz fasli iyun oyidan boshlanadi. Ammo bizning o'lkamizda may oyining o'rtalaridan havo yozdagidek issiq bo'ladi. Yozda yomg'ir kam yog'adi. Erta ekilgan sabzavot ekinlari, handalak, bodring, pomidor yetiladi.

Mevalardan shaftoli, o'rik, olxo'ri va olmalar pishadi. Maktablarda o'qishlar yakunlanadi. O'quvchilar yozgi ta'tilga chiqishadi.

Bu vaqtda bolalar dam olish maskanlari, sog'lomlashtirish oromgohlarida dam oladilar. Respublikamizda bolalar oromgohlari juda ko'p. Ular tabiati chiroyli, havosi toza joylarda qurilgan.

Oromgohlarga chiqqanda yurish, kiyinish, suvda cho'milishning o'z qoidalari bor.

Oftobda bosh kiyimisiz yurish, gullar, o‘tlarni yulish, hasharotlarga, hayvon va qushlarga ozor berish, kattalar nazoratisiz suvga tushish, cho‘milish mumkin emas.

Lug‘at

yakunlanmoq – заканчиваться

tabiati chiroyli – прекрасная,

красивая природа

havosi toza – чистый воздух

qoida – правило

yulmoq – рвать



Uyga vazifa. «Yozda» mavzusida 4 ta gap tuzing.



2-DARS

1-topshiriq. Matnni o‘qib, uning mazmuni asosida savollar tuzing.

YOZGI TA’TILDA

Men yozgi ta’tilda Farg‘onaga bordim. Farg‘ona juda go‘zal shahar. U yerda bog‘lar juda ko‘p. Buvim bilan «Chimyon» dam olish uyida ham bo‘ldim. Dam olish uyida men ko‘p bolalar bilan do‘stlashdim. Menga dam olish uyi juda yoqdi.

Lug'at

bilan – с (предлог)

do'stlashmoq – подружиться

juda – очень

yoqdi – здесь: понравилось

2-topshiriq. Berilgan so'zlardagi **-ga, -ka, -qa** qo'shimchalarini to'g'ri talaffuz qiling va so'zlarni eslab qoling.

ta'til**ga**

dalag**a**

ko'l**ga**

eshik**ka**

laylak**ka**

chelak**ka**

qishloq**qa**

buloq**qa**

qayiq**qa**

1-mashq. Berilgan so'zlarni to'g'ri joylashtirib gaplar tuzing.

1. Men, dam, yozgi, oldim, ta'tilda, yaxshi.

2. Yordam, men, uy, berdim, ishlarida, onamga.

3. Oromgohda, joylarni, ko'p, ko'rdim, chiroyli.



SUHBAT

- Yozgi ta'til qachon boshlanadi?
- Yozgi ta'til 1-iyundan boshlanadi.
- Sen yozgi ta'tilni qayerda o'tkazasan?
- Men yozgi ta'tilni bobomnikida o'tkazaman.

- Bobong qayerda yashaydilar?
- Samarqandda yashaydilar.
- Samarqand qanday shahar?
- Samarqand katta va chiroyli shahar. U yerda tarixiy joylar juda ko‘p.



Uyga vazifa. She‘rni yod oling.

YOZNING KELISHI

Toshib oqar daryo, soy,
Suvi ataladay, loy.
Budir yozning kelgani,
Tog‘lar oshib yelgani.

Jaranglaydi qo‘ng‘iroq,
Undan yangraydi har yoq.
Budir yozning kelgani,
«Ta’tillarga», degani...

Eson Rahimov

СӨЗДҮК

A

albatta—албетте, сөзсүз
ammo—бирок
ancha—бир кыйла
ari—аары
asr—кылым
asramoq—сактоо; багуу
ashula—ыр
aql—акыл, эс
aqli—акылдуу
ayniqsa—айрыкча
ayol—аял
ayon—анык, ачыктан-ачык

B

baliq—балык
balki—балким
baravar—барабар, тең
barcha—баары
baxt—бакыт, ийгилик
baxtli—бактылуу, ийгиликтүү, жолдуу
bayon—баяндоо
ba'zan—кээде, кээ бир убакта
bekat—бекет, токтой турган жай

bino – имарат, курулуш
bolta – балта
bolg'a – балка
boylik – байлык
bog' – бак, парк
bog'bon – багбан, бакчы
bu yerda – бул жерде
bulbul – булбул
buzoq – музоо, торпок
bo'lak – бөлүк, кесим; өзүнчө бөлөк
bo'ylab – бойлой, бойлоп

D

dala – талаа
dangasa – жалкоо, эринчээк
darvoza – дарбаза
daryo – дарыя
darmon – күч, кубат
davlat – мамлекет; байлык
dazmol – үтүк, утюг
demak – демек
dengiz – деңиз
dori – дары
dorixona – дарыкана
do'stona – достук, татуулук, ынактык

E

egar – ээр
erimoq – эрүү, эрип кетүү
erkalamoq – эркелөө
ertak – жомок
eshitmoq – угуу

F

falak – асман

fan – илим; предмет

farq – айырма

farrosh – уборщица (пол жуучу адам)

farqlamoq – айырмалоо

fazilat – кадыр-барк, абийир

fazo – мейкиндик, космос

G

gavjum – элдүү, көп кишилүү

gapirmoq – сүйлөө, айтуу

gilam – килем

gugurt – ширеңке, күкүрт

guldasta – гүлдесте

gulxan – костёр (отун үйүп жагылган от)

gumbaz – күмбөз

go'dak – бөбөк, наристе

H

hamshira – медсестра

havo – аба

havas – каалоо, тилек

haydamoq – кууп жиберүү, айдоо

haydovchi – айдоочу

hasharot – курт-кумурска

hisoblamoq – эсептөө

hissa – үлүш, энчи; бөлүк

hordiq – чарчагандык

hordiq chiqarmoq – эс алуу

hunar—өнөр, чебердик
husnixat—таза жазуу
hushyor—сергек, сак, кыраакы

I

idora—мекеме, башкарма
ikkala—экөө тең
ilgari—мурда
ilmoq— илүү, тагуу
ilon—жылан
iltimos—сураныч
in—уя; ийин
intizom—тартип
intilmoq—умтулуу, тырышуу
istiqlol—келечек
iyak—ээк
iz—из, так
izlamoq—издөө
ishlamoq—жумуш иштөө
ishchi—жумушчу, ишчи

J

jadval—жадыбал
jahon—дүйнө
jamiyat—коом, эл
jar—жар, аң
javob—жооп
jazo—жаза
jiddiy—олуттуу
jihoz—жабдуу, шаймандар
jilmayish—жылмайыш, күлүмсүрөө

K

kalta—кыска
kamalak—көк желе
kamtar—токтоо, оор басырык
kapalak—көпөлөк
kasb—кесип
katta—чоң
kelajak—келечек
kelmoq—келүү
keng—кең, кенен
kesmoq—кесүү, кыркуу
ketmoq—кетүү
kezmoq—тентүү, сандалып жүрүү
kim—ким
kiprik—кирпик
kirmoq—кирүү
kokil—өрүлгөн чач, көкүл
kunduz—күндүз
kutmoq—күтүү
kutubxonachi—китепканачы
ko'rkam—сулуу, сонун, көркөм
ko'cha—көчө
ko'chmoq—көчүү

L

lavozim—кызмат орду
lazzatli—даамдуу, таттуу
lashkar—аскер

lola—жоогазын

loviya—фасоль (буурчактын бир түрү)

lo'nda—ачык, даана, кыска

lo'ppi—болтойгон, борсойгон

M

marosim—ырым-жырым, каада, жөрөлгө

maqta moq—мактоо

mavsum—мезгил, маал

mayda—майда

maydon—аянт

maymun—маймыл

ma'qul—ылайыктуу, туура келүү

mehnat—эмгек, мээнет

mehnatkash—эмгекчи, мээнеткеч

mehribon—камкор, мээрман

mevali—мөмөлүү, жемиштүү

minora—мунара

muallif—автор

muomala—кайрылуу; айлануу; мамиле

muzqaymoq—бал муздак

N

nam—ным

namuna—үлгү

navbat—кезек

navbatchi—кезекчи

nom—аты-жөнү, ысым

nozik—назик

nuqul—баары, бүткүл

O

obod—жакшыланган

oddiy—жөнөкөй

oftob—күндүн аптабы

olov—от

oppoq—аппак

orzu—кыял, эңсөө, каалоо

ortiqcha—ашыкча, артык

ozod—эркин; бошотулган, кутулган

ozoda—таза

og'ir—оор; кыйын

oshpaz—ашпозчу

P

parda—парда

paxtakor—пахтакер

pashsha—чымын

piyoda—жөө, жөө жүрүү

pichirlamoq—шыбыроо, шыбырап айтуу

poylamoq—күтүү; андуу

puxta—бекем, бышык

Q

qadim zamon—эзелки, байыркы

qalam—калем

qattiq—катуу

qavat—кабат; этаж

qaytim—кайрып берүү (акчаны)

qaychi—кайчы

qidirmoq – кыдыруу
qiziqarli – кызыктуу
qolmoq – калуу
qonun – мыйзам
qoplon – илбирс
qurbon bo'lmoq – курман болуу
quti – куту
qo'ng'iz – коңуз
qo'rqmoq – коркуу
qo'ymoq – коюу, калтыруу
qo'shni – коңшу, кошуна

R

raqs – бий
rohat – жыргал, ыракат
rozi bo'lmoq – ыраазы болуу
ro'zg'or – үй-орозгер; мүлк

S

sabab – себеп
sabr – сабыр, чыдоо
sara – тандалган
saraton – саратан, жайдын ысык күнү
sarlavha – баш, (макаланын башы)
saroy – сарай (дворец)
sayohat – саякат
sayr – сейил
serob – мол, көп
sir – жашырын сыр
sira – такыр, таптакыр

sig'moq – батуу; кийлигишүү

soat – саат

sotib olmoq – сатып алуу

sotuvchi – сатуучу

soya – көлөкө

suhbatlashmoq – маектешүү, аңгемелешүү

so'ramoq – суроо, сураштыруу

T

tabriklamoq – куттуктоо

taklif – сунуш

tayyor – даяр

tashimoq – ташуу, ташып жүрүү

tashkilot – уюм

tashrif buyurmoq – келүү, баруу

tekshirmoq – текшерүү

tiniq – тунук

tinchlik – тынчтык

topishmoq – табышмак

tor – тар

tosh – таш

to'satdan – кокустан

to'xtamoq – токтотуу, токтоо

U

ulug' – улуу

unutmoq – унутуу

urf-odat – үрп-адат

usta – уста

uy—үй

uzun—узун

uchrashmoq—учурашуу, жолугушуу

V

vaqtida—өз убагында

varrak—батпирек

vazir—министр

vergul—үтүр

viloyat—область, облус

voqea—окуя

X

xabar—кабар

xalq—эл, калк

xazina—казына

xizmat—кызмат, иш

xizmat qilmoq—кызмат кылуу

Y

yana—дагы, кайтадан

yaqin—жакын

yaqinda—жакында

yashirmoq—жашыруу

yashnamoq—гүлдөп өсүү

yetmish—жетимиш

yetmoq—жетүү

yechilmoq—чечилүү

yechmoq—чечүү (кийимди)

yengil—жеңил

yirik – ири
yirtmoq – жыртуу, айрып салуу
yig'ishtirmoq – жыйнаштыруу
yig'lamoq – ыйлоо
yodlamoq – жаттоо
yolg'iz – жалгыз
yolg'on – калп, жалган
yonida – жанында
yonmoq – күйүү, жануу
yoqmoq – жактыруу, жагуу
yozmoq – жазуу
yozuvchi – жазуучу
yog'och – жыгач
yubormoq – жиберүү
yulduz – жылдыз
yumaloq – тегерек, тоголок
yumshoq – жумшак, назик
yupqa – жука
yuqori – жогору; жогорку
yuqumli – жугуштуу
yurt – өлкө, журт, мекен
yo'l – жол
yo'l harakati – жол аракети
yo'lak – өтүүчү жай, коридор
yo'lka – тротуар, ичке жол
yo'qolmoq – жоголуу

Z

zahar – уу
zamon – заман
zangori – көгүш, көгүлтүр

zararli – зыяндуу
zavq – ыракат, жыргал
zavqlanmoq – ыракаттануу, суктануу
zerikmoq – зеригүү
ziyrak – сейрек, сак
zo'rg'a – араң, зорго

O'

o'rta – орто
o'rtasida – ортосунда
o'tirmoq – отуруу
o'tkazmoq – өткөрүү
o'xshamoq – окшош болуу
o'zak – өзөк
o'zim – өзүм

G'

g'alati – бир түрдүү, кызыктай
g'altak – чыгырык
g'aroyib – укмуштуу
g'ijimlamoq – бырыштыруу, уйпалоо
g'isht – кыш
g'or – үңкүр

Sh

shabnam – шүүдүрүм
shabada – жел, шамал
shahar – шаар
shakar – кант, шекер
shakl – форма, калып

sham – шам
shanba – ишенби
shayton – шайтан
shakllanmoq – калыптануу
sher – арстан
she'r – ыр
shivirlamoq – шыбыроо, күбүрөө

Ch

chaqmoq – чагылган; чагуу
chayon – чаян
chaymoq – чайкоо
chaynamoq – чайноо
chayqamoq – термелтүү, чайпалтуу; чайкоо
chala – чала, бүтпөгөн
chalmoq – ойноо; чалуу
chalg'imoq – алаксуу, алаксытуу
chevar – чебер, уз
chiqish – чыгуу
chivin – чиркей
chizmoq – сызуу, чийүү
chumoli – кумурска

MUNDARIJA

I. Vatanim	4
II. Sinfimiz.....	11
III. Kuz	17
IV. Mevalar	22
V. Polizda	26
VI. Sabzavotlar.....	33
VII. Oila	37
VIII. Kun tartibi.....	45
IX. Qish	51
X. Yangi yil bayrami	56
XI. Sport	63
XII. Ob-havo	70
XIII. Bahor	76
XIV. Gullar	83
XV. Bayramlar	90
XVI. Uy hayvonlari va parrandalar	99
XVII. Yovvoyi hayvonlar va qushlar.....	107
XVIII. Hayvonot bog'ida.....	115
XIX. Yoz.....	122
Lug'at	128

O'quv nashri

Abduroziq Rafiyev, Gulnora Muxamedjanova,
Gulobar Ziyamuhamedova

O'ZBEK TILI

*Ta'lim qirg'iz tilida olib boriladigan
maktablarning 3-sinfi uchun darslik*

5-nashri

Tarjimon *R. Jumanazarova*

Muharrir *T. Mirzayev*

Rassomlar: *R. Zufarov, Y. Gabzalilov,*
N. Shoabdurahimov

Badiiy muharrir *H. Qutluqov*

Öxnik muharrirlar: *L. Xijova, B. Karimov*

Musahhih *M. Ishonxonova*

Kompóuterda sahifalovchi *K. Hamidullayeva*

Nashriyot litsenziyasi AI ¹ 158, 14.08.2009.

Bosishga 2019-yil 17-mayda ruxsat etildi. Bichimi 60x90^{1/16}.
Ofset qog'oziga ofset usulida bosildi. «Pragmatika» garniturası.
Kegli 14,5. Shartli bosma tabog'i 9,0. Nashr tabog'i 6,17.
Nusxasi 96. Buyurtma ¹ 19-84.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz

www.iptd-uzbekistan.uz

Rafiyeu A.

R 27

O'zbek tili: ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 3-sinfi uchun darslik. / A.Rafiyeu, G. Muxamedjanova, G. Ziyamuhamedova. Beshinchi nashri. – T.: «O'zbekiston», 2019. — 144 b.
ISBN 978-9943-25-798-6

UO'K 811.512.133 (075)

KBK 81.2Uzb

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

1	O'quvchining ismi, familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgan- dagi holati	Sinf rahba- rining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

**Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib
olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan
quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Kî'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlarga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.